

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
TURIZM FAKULTETI
«TASVIRIY SAN'AT VA MUXANDISLIK GRAFIKASI» KAFEDRASI

“O'rta maktab tasviriy san'at darslarini o'qitishda kompyuter texnologiyalardan foydalanish”

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: Kunduzgi bo'lim bitiruvchisi
3-2TS-15 guruh talabasi **Nazarova Orzigul**

Ilmiy rahbar : o'qituvchi S.S.Azimov

Bitiruv malakasi ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

_____ sonli bayonnomasi «_____» _____ 20__ yil

BUXORO – 2019 yil

MUNDARIJA

Kirish	3-11
I bob. O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitilishi.	
1.1§.Tasviriy san'at turlari va janrlari.....	12-17.
1.2§.. Tasviriy san'atning mustaqillik yillarida rivojlanishi.....	18-20
II bob. Tasviriy san'at ta'limining maqsad va vazifalari.	
2.1§. O'rta maktabda tasviriy san'at mashg'ulotlarining maqsad va vazifalari..	21-27
2.2§. O'rta maktab tasviriy san'at o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasidagi roli va o'rni.	28-36
III bob."Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish".	
3.1§. Maktabda tasviriy san'atni o'qitishning nazariy va metodik asoslari.....	37-50
3.2§ Dars ishlanma.	51-53
3.3§ Rangtasvirda natyurmort ishlash uchun axborot kompyuter texnologiyalaridan foydalanish.	54-56
3.4§. Tasviriy san'atda Adobe Photoshop va Corel Draw grafik muharriridan foydalanish.....	57-71
IV.Xulosa	72
V.Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	73-74

Kirish.

“Jamiyatda yuksak ma’naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an’analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir”¹

Mustaqilikning dastlabki kunlaridan boshlab Respublikamizda xalq ta’limini tubdan isloh qilish, uni jahonning rivojlangan mamlakatlari darajasiga olib chiqish masalasi kun tartibiga qo’yildi. Shu maqsadda 1992-yil iyulda “Ta’lim to’g’risida” gi qonun e’lon qilindi. Bu hujjatda ko’rsatilgan reja va tadbirlarni amaliyotga joriy etish davlat siyosatining ustivor yo’nalishi deb qaraldi.

Natijada umumiy o’rta ta’lim maktablaridagi barcha o’quv fanlari qatori «Umumta’lim maktablarida tasviriy san’at ta’limi kontseptsiyasi» ham tayyorlandi va u O’zbekiston xalq ta’limi vazirligi kollegiyasining 5- may 1993- yilgi 5-5 sonli qarori bilan tasdiqlandi. Mazkur kontseptsiyada qayd qilinganidek, uni tayyorlashda quyidagi omillar hisobga olingan edi:

-mustaqil O’zbekiston sharoitidagi kelajak avlodni shakllantirishga bo’lgan zamonaviy talablar;

-ta’lim-tarbiyani milliy madaniyat va san’at asosida amalga oshirishni kuchaytirish;

-ta’lim-tarbiyani amalga oshirishda O’zbekiston Sharq mamlakati ekanligini hisobga olish va shu asosda badiiy ta’lim mazmuniga tegishli o’zgartirishlar kiritish;

-maktabdagi badiiy ta’limni amalga oshirishda bolalarni fikrlashga, ishga ijodiy munosabatda bo’lishlikni kuchaytirish, ularni yuksak did va madaniyatli qilib shakllantirishga qaratish;

-maktabda bolalarni tasviriy san’atdan bilim va malakalarni puxta egallashlariga qaratish, shu asosda tabaqalashtirilgan badiiy ta’limni joriy etish;

¹ Каримов И.А. Маънавий юксалиш йўлида. - Т.: Ўзбекистон, 1998. - 18-б.

-O`zbekiston maktablarida tasviriy san`at ta`limi mazmunini dunyo standartlari darajasiga olib chiqish.

Bu g`oyalar so`zsiz barkamol komil insonni shakllantirishga zamin bo`lib, unda tasviriy san`atni o`qitishning yaqin va uzoq yillarda rivojlantirishga mo`ljallangan yo`nalishlari bayon etildi.

1997- yilda O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi yangi tahrirdagi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hujjatlarining e`lon qilinishi katta tarixiy voqea bo`ldi. U amaldagi ta`lim tizimidan tubdan farq qiluvchi yangi tizim bo`lib, unda ta`lim sohasini 1997-2006 va undan keyingi yillar uchun ish rejasi va taraqqiyoti belgilab berilgan edi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da estetik turkumdagi fanlarni o`qitilishiga alohida e`tibor berilgan bo`lib, xususan uning “Uzluksiz ta`limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari” qismida uzluksiz ta`limning faoliyat ko`rsatish printsiplaridan biri ta`limning ijtimoiylashuvi deb qaraldi. Unda ta`lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma`naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish lozimligi qayd etiladi.

Mustaqil mamlakatimizning Xalq maorifi sistemasining sifatidan yuksak darajaga ko`taradigan omillardan biri – yosh mutaxassislarning ijodiy aspektda tarbiyalanishi hisoblanadi. Ayniqsa mamlakatimiz mustaqillikni mustahkamlash yo`lida takomillashayotgan siyosiy va iqtisodiy o`zgarishlar davrida xalq ma`rifati sohasida ijodiy, estetik madaniyatli yosh mutaxassislarning etishib chiqishi va ishga kirishib, yuksak malakalarga ega bo`lishi juda muhim.

Ushbu muammolarni amalga oshirishda tasviriy san`at mutaxassislariga o`rta maxsus va yuqori ta`lim berish o`qish o`rinlarining tasviriy san`at mashg`ulotlarini olib boruvchi o`qituvchilarning faoliyati katta rol o`ynaydi, ularga katta ma`suliyatli vazifalar yuklatiladi.

Xalqimiz ma`naviyati va madaniyatini boyitishda tasviriy san`atning o`rni bor. Hozirgi davrda har sohada bo`lgani kabi tasviriy san`atda katta o`zgarishlar bo`lmoqda. Respublikamizning kelajakda buyuk mamlakatga aylanishi, jahonning rivojlangan davlatlari qatoriga qo`shilishida xalqimiz madaniyati, ma`rifati, san`ati

va ma`naviyatining roli beqiyosdir. Bu borada birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shunday ta'lim beradi : «Jahon bozoridagi integratsiya, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot suratlari xalq ta'limining barcha bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni mustahkamlashni talab etmoqda. Binobarin bu hol ta'lim, tarbiya, siyosiy va kasbiy tayyorgarlik masalalarini hal etishga, jamuljam yondoshishni taqozo qilmoqda». Demak, Respublikamizda ta'lim va tarbiya, ilm va fan taraqqiyot sur'atini oshirish uchun malakali mutaxassis xodimlar zarur.

Tasviriy san`at mashg'ulotlari Badiiy – grafika fakul'teti talabalarining pedagogik faoliyati va badiiy ijodkorligini o`stirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki, bo`lajak rassom o`qituvchi tasviriy san`atning ifoda vositalari haqida chuqur ma`lumotga ega bo`lishi, turli badiiy materiallarning xususiyatlari va ularning foydalanish yo`llarini mukammal egallashi kerak.

O`qituvchi qalam va bo`yoqlar bilan rasm ishlash malakalariga ega bo`lish bilan birga, shu sohadagi nazariy hamda amaliy bilimlarini o`quvchilarga yetkaza olishi zarur.

Ta`lim berish haqidagi qonunda badiiy tarbiyani har tomonlama rivojlantirishga alohida e`tibor berilgan. Go`zallikni sevuvchi har bir inson san`at turlarining barchasini, ular orasida tasviriy san`atga alohida e`tibor qaratmasdan, san`at haqida qandaydir baho berishi yoki lazzatlanishi mumkin emas. Chunki, tasviriy san`atsiz madaniyatning hech bir turini tasavvur qilishning o`zi qiyin narsa. Tasviriy san`at alohida bir olam. Insoniyat azaldan go`zallikka intilib kelgan, go`zallik esa insoniyatning barkamol va hurfikr bo`lishiga yetaklaydi. Bu o`rinda san`atning o`rni qanchalar keng qamrovli ekanini so`z bilan ta`riflab bo`lmaydi. San`atning yuzaga kelishi insonning borliq to`g`risidagi bilimlarining chuqurlashishiga, o`z avlodi tajribalaridan bahramand bo`lishiga olib keladi. San`at xalqning estetik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Estetik jihatdan o`shish faqat san`atnigina idrok etish lozim bo`lmay, balki umumiy madaniyatining, turmush madaniyati, his-tuyg`ular madaniyati uchun ham juda zarur bo`lgan hodisadir.

Hozirgi kunda milliy ma`naviyatimiz rivojini tasviriy san`at namunalarimiz tasavvur etib bo`lmaydi. O`zbek rassomlarining keyingi yillarda samarali ijod qilib, yangi-yangi yutuqlarni qo`lga kiritayotgani, bu sohaga ko`plab yosh iste`dod egalari kirib kelayotgani uning ravnaqi va istiqbolidan dalolar beradi. Bunday ijobiy o`zgarishlarni monumental san`at sohasida ham kuzatish mumkin. Ma`lumki, monumental san`at deganda, avvalo katta ta`sir kuchiga ega bo`lgan mahobatli haykallar va yodgorlik majmualarini tushunamiz.

Yurtimizda ma`naviy tiklanish va yangilanish jarayonlari boshlanishi bilan boshqa san`at turlari kabi monumental san`atda ham yangi davr boshlandi. Ushbu soha shu qadar nozik va murakkabki, unda har bir detal, hatto eng mayda bo`lib ko`ringan masalaga ham jiddiy e`tibor qaratish talab etilladi.

Kelajagimiz bo`lgan ulg`ayayotgan yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida estetik tarbiya alohida ahamiyatga ega. U o`quvchilarga borliqni yaxshiroq tushunishga, odamlarning his-tuyg`ulari dunyosini chuqurroq anglashiga, ularning ijodiy qobiliyatlarini o`stirishga yordam beradi. Go`zallikni sezishni o`rgatadi. Estetik tarbiyaga ega bo`lgan bolalar san`at asarlarida tabiatda, odamlarning o`zaro munosabatlarida hamda mehnatni, go`zallikni ko`ra oladigan bo`lishadi.

Shuningdek, ularning hayotga go`zallik kiritish malakalari rivojlangan badiiy fikrlash doirasi keng bo`ladi. O`quvchilardagi bu xossalarni rivojlantirishda estetik tarbiyaning ta`siri katta ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san`at borliqni badiiy obrazlar orqali o`zidan aks ettiradi.

Tasviriy san`at insonning ongiga ta`sir etib, unda ezgu his-tuyg`ularni uyg`otadi. U kishini ruhlantirib, ma`naviy olamini boyitadigan san`at turlaridan biridir. O`z xalqining milliy san`atining tarixi va xususiyatlarini bilish, o`zining turmush va tabiat bilan bog`liq holidagi an`analarini bilish, yoshlarda milliy g`urur hissini tarbiyalaydi. Tasviriy san`at asarlarini rassomlar turli janrlarda yaratmoqdalar. Biz tasviriy san`atning ko`rgazma zallarida asarlarni ko`zdan kechirar ekanmiz, har bir davrning o`ziga xos rassomlari, ular yaratgan asarlari ko`z o`ngimizda namoyon bo`ladi va kishi e`tiborini o`ziga jalb etadi.

Mustaqil mushohada borliqni, voqelikni idrok etish usuli sifatida tafakkur bilan bog'liq holda, mustaqil fikrlash jarayonida shakllanadi. Bu haqda birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov : «Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan qilib tarbiyalanadi. Agar bola erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'liga, mustaqil fikrlash ham katta boylikdir», -degan edi.

Uzluksiz ta'lim berish sistemasining davlat standartlariga o'tish, o'qish va tarbiya ishlarining metodlarini, usullarini, ayniqsa maktab va kasb-hunar o'quvchilarini o'qitish va tarbiyalash usul va formalarini, shuningdek, ularning mazmunini yangilash zarurligini talab qiladi. Bu esa, o'z navbatida o'quvchilarda fikrlash erkinligining hissini bildirishda, shuningdek, o'zlarining ichki tuyg'ulari dunyosining rivojlanishi zarurligidan kelib chiqadi. Ushbu qo'yilgan vazifalarning bajarilishining inobatli bo'lishida o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlarni takomillashtirish turlaridan, pedagogik jarayonni boshqarish bo'yicha tanlab olingan usullarning to'g'riligidan, ularning har birining o'zgachaligi va alohida qobiliyatlarini rivojlantirish shakllarini ta'minlashdan iborat.

So'nggi yillarda, ayniqsa O'zbekiston o'z mustaqilligini ta'minlashidan beri tasviriy san'at mashg'ulotlarini olib borish ishlarigayam bir qator yangiliklar kiritilmoqda. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilar maxsus bilim, tajriba va malakalarni egallay olishadi, haqqoniylikni va tasviriy san'at asarlarida estetik jihatdan tushunchalar berishga erishadi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlari o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini, ko'rganlarini, o'rganganlarini yodda saqlanishi, ijodiy tushunchalarini, badiiy did, estetik his-tuyg'ularini orttiradi. Tasviriy san'at bo'yicha mashg'ulotlar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatining o'sishi, dunyoqarashining shakllanishiga yordam beradi, insonni har tomonlama takomillashtiradi va fikr doirasini kengaytirib, hayotni va borliqni bilish tushunchalarini rivojlantiradi, go'zallikka intiluvchan kayfiyat beradi.

Hozirgi kunda zamonaviy tasviriy san'at darslarida ta'lim berish predmetining maxsus vazifalari qatorida :

- badiiy madaniyat ko`rinishlari va ularning ijtimoiy turmushimizdagi rolini tushunishini rivojlantirish;
- o`quvchilarda tasviriy san`at va badiiy adabiyot asarlariga tegishli emotsional fikr yuritishda, tasviriy san`atga bo`lgan qiziqishini va uni sevishini tarbiyalash ;
- doimiy va maqsadga muvofiq ravishda ko`rib fikr yurgazishini, ranglar va hajmlarini sezishni, kompozitsiya madaniyati, fazoviy fikrlash, fantaziyani, ko`rish orqali fikrlash va kombinatsiya qilish ijodiy vazifalarni konkret obrazlarda yecha bilishini rivojlantirish kabi vazifalarini ko`rish mumkin.

Yuqorida ko`rsatilgan vazifalarni loyiq amalga oshirishda tasviriy san`atning jamiyatimiz turmushidagi olib boradigan funktsiyalarining ilmiy asoslari yuksak natijalar beradi.

Respublikamiz kelajagi, ravnaqi, ta'lim-tarbiya sohasidagi ishlarning qay tarzda olib borilishiga bog'liq.

Ta'lim–tarbiya sohasini takomillashtirish bu borada yangi, zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etishning tizimli asoslarini yaratish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

O'zbekiston respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek “. . . zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta'minlashni alohida nazorat ostiga olish kerak”. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib bugungi kunda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslarini yaratish va uni ma'lum bir tizimga solish davr talabidir.

BITIRUV MALAKAVIY ISHNING MAQSADI:

Rasm chizishning turli grafik usullari (qalam, pastel, ko'mir va suv bo'yoq) ni o'rgatish asosida o'quvchilarning ijodiy mahoratlarini takomillashtiradi. CorelDRAW, Photoshop, Recolored, programmalari orqali ijodiy mahoratlarini boyitadi. Maktab tasviriy san'at darslarini tashkil etish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o'quvchilardagi ta'lim–tarbiya sohasini takomillashtirish bu borada yangi, zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etishning tizimli asoslarini yaratish.

MAVZUNING DOLZARBLIGI:

Bakalavr bitiruv malakaviy ishi “O’rta maktab tasviriy san’at darslarini o’qitishda kompyuter texnologiyalardan foydalanish”bo’yicha bajarilgan. Bakalavr malakaviy bitiruv ishini mavzusini tanlashimda, uning mazmun-mohiyati, hozirgi kundagi ahamiyati va aktualligi, estetik tarbiya ishlarida va tasviriy san’at darslarida qo’llanma sifatida foydalana bo’ladigan aktual vazifalar yechimini topishni o’z oldinga maqsad qilib qo’yganman.

“Ta’lim to’g’risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da ko’zda tutilgan bosh maqsadlardan biri mustaqil va ijodiy fikrlovchi, jahon andozalariga mos keladigan raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashdan iboratdir.

Buning uchun xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz dunyoqarashini o’zgartirish, ularning bilim va ma’naviyatlarini jahon andozalari darajasiga ko’tarish zarur. Borliqdagi narsalarning shakllari haqidagi bilimlarni berish;Natyurmort tuzilishini o’rganish

TADQIQOT PREDMETI:

umumiy o’rta maktabda tasviriy san’at rangtasvir, o’quv amaliyoti natyurmort, mashg’ulotlarida o’quvchilar natyurmortlarda ijod etishga o’rgatish metodikasini shakllantirishda axborot kompyuter texnologiyalardan foydalanish.

Bo’lajak umumiy o’rta va kasb – hunar ta’limi kollejlarning o’qituvchilari nafaqat fan asoslarini, balki ular eng zamonaviy ilg’or pedagogik texnologiyalarni egallagan bo’lishlari, o’zlarining pedagogik maxoratlarini to’xtovsiz oshirib borishlari talab etiladi. Bo’lg’usi o’qituvchilar tasviriy san’at o’qitishda zamonaviy pedagogik texnologiya kursi tugaganidan so’ng quyidagi bilimlarni egallagan bo’lishlari lozim:

TADQIQOT OBYEKTI.

- tasviriy san'atdan maxsus fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim taraqqiyotini harakatlanuvchi kuchi ekanligini ;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tarixiy taraqqiyot bosqichlarini;
- xorijiy mamlakatlarda qo'llanib kelayotgan interfaol metodlarni;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tasviriy san'at mashg'ulotlarida qo'llanish imkoniyatlarini;
- tasviriy san'at mashg'ulotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotda qo'llash yo'llari va uning qonuniyatlarini;
- zamonaviy pedagogik texnologiya loyixasi va uning tarkibiy tuzilishini;
- o'quvchilarni bilim, malaka va ko'nikmalari, ijodiy ish natijalarini nazorat qilish va baholash;

BAJARILGAN ISHNING ASOSIY NATIJALARI:

Bakalavr malakaviy ishimiz davomida ishimizning maqsadi va vazifalari, shuningdek uning amaliy zarurligini ko'rsatishga harakat qildik va qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya maktablarda o'quvchilarga tasviriy san'at darslarida o'yin-mashg'ulotlarni o'tkazish metodikasi, ularning san'atni sevishga o'rgatishda bu ishimiz yaxshi natija berganligiga erishdik.

TADQIQOT USLUBIYOTI VA USLUBLARI:

Analitik tahlil, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov, test, solishtirish va tasviriy san'atning zamonaviy metod va metodikalardan unumli foydalanildi.

TADQIQOT NATIJALARINING ILMIY JIHATDAN YANGILIK DARAJASI:

- Bakalavr malakaviy bitiruv ishi referativ, metodik va amaliy xarakterga ega.
- Tasviriy san'at darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'rganildi.
 - Tasviriy san'at darslarida pedagogik texnologiyalarni qo'llanishi amaliy ahamiyati o'rganib chiqildi.

–Maktab o`quvchilarining tasviriy san`at darslarini yaxshi o`zlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy jihatdan metodlari ishlab chiqildi;

– Umumiy o`rta ta`lim maktab o`quvchilarida “tasviriy san`at” fanining imkoniyatlari aniqlandi va tahlil etildi;

– Umumiy o`rta ta`lim maktab o`quvchilarida tasviriy san`at darslarida rang tasvirda natyurmort, dars mavzularini o`rgatishning pedagogik asoslari, sharoitlari, omillari va sabablari aniqlandi;

TADQIQOT NATIJALARINING AMALIY AHAMIYATI VA TADBIQI:

Tasviriy san`at mashg`ulotlari o`quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini, ko`rganlarini, o`rganganlarini yodda saqlanishi, ijodiy tushunchalarini, badiiy did, estetik his-tuyg`ularini orttiradi. Tasviriy san`at bo`yicha mashg`ulotlar o`quvchilarning ijodiy qobiliyatining o`sishi, dunyoqarashining shakllanishiga yordam beradi, insonni har tomonlama takomillashtiradi va fikr doirasini kengaytirib, hayotni va borliqni bilish tushunchalarini rivojlantiradi, go`zallikka intiluvchan kayfiyat beradi.

BITIRUV MALAKAVIY ISHNING TUZILISHI:

- kirish qismi, uchta bob, sakkizta paragraf, xulosa qismi, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati hamda ilovalardan iborat bo`lib, jami sahifani tashkil etadi.

I bob. O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitilishi

1.1§.Tasviriy san'at turlari va janrlari.

Tasviriy san'atning uch turi mavjud: **1. Rang tasvir 2. Haykaltaroshlik 3.Grafika**

Rang tasvir deb tekis yuzada turli rang va materiallar yordamida bajariladigan tasvirga aytiladi. Bu tur uchun asosan bo'yoqlar- moyli bo'yoq, akvarel, guash, tempera, shuningdek rangli qalamlar, ko'mir qalam, pastel, sous, sangina kabi badiiy materiallar bilan ishlash xarakterlidir.

Rang tasvir asarlari qog'oz, karton, mato, devor, oyna, yog'och kabi tekis yuzalrga ishlanadi. Rang tasvir asosini rasm tashkil etadi. Har qanday rang tasvir ichida, avvalo, uning rasmi ishlab olinadi. Unda kompozitsiya, nur va soya, rang asosiy o'rinni egallaydi.

Rang tasvir asarlari bajarilish texnikasi jihatidan turli-tuman bo'lib, ular moy bo'yoqli, temperali, freskali, mozaikali, vitrajli, akvarelli, guashli, pastelli bo'lishi mumkin.

Rang tasvirni quyidagi turlari mavjud:

- 1.Dastgohli rang tasvir,
- 2.Monumental (mahobatli) rang tasvir,
- 3.Minatyura (mo'jaz) rang tasvir,
- 4.Dekarativ (bezak) rang tasvir,
- 5.Teatr - dekarativ (bezak) rang tasviri.

Dastgohli rang tasvir deyilganda, rassomlarning maxsus asbob - dastgoh (malbert) yordamida ishlaydigan suratlari tushuniladi. Dastgohli rang tasvir asarlari uncha katta bo'lmagan o'lchovda yuqorida qayd qilib o'tilganidek mato, karton, oyna, faner kabi tekis yuzali materiallarga bo'yoqlar bilan ishlanadi. Dastgohli rang tasvirda ko'pincha moyli va akvarel bo'yoqlar qo'llaniladi.

Manumentar rang tasvir atamasi monumental (mahobatli) ya'ni katta o'lchovdagi rang tasvir ma'nosini anglatadi va bu turdagi asarlar ko'pincha binolarning ichki va tashqi devorlariga tempera bo'yoqlari bilan ishlanadi.

Monumental tasvir asarlarining freska, mazaika, vitraj, panno, kabi turlari mavjud.

Freskalar asosan bino devorlarining o'ziga, shuningdek, unga matolar yordamida ishlanadi.

Mazaika - turli tabiiy va ikkilamchi materiallar - rangli oyna parchalari, toshlar, sintetik materiallardan bino devorlariga yoki tekis materiallar ustiga ishlanadi.

Vitraj - esa binolarning dereza, eshik, oynalri ustiga bo'yoqlar yordamida ishlanadi. Vitrajlar uy ichkarisi va tashqarisida ham bir xil ko'rinadi.

Minatyura (mo'jaz) rang tasviri deyilganda bejirim, juda kichik, nozik san'at asarlari tushuniladi. Minatyura rang tasviri o'rta asrlaeda kitob bezagi bilan bog'liq holda rivoj topdi. U kitoblardagi bosh, yakuniy bezak, zarhalharf, ilyustrasiyalardan iborat bo'lgan. Rang tasvirning bu turi sharqda, shu qatori movarunnahrda katta shuxrat qozongan. Hozirda u mustaqqil san'at turi sifatida nafaqat kitoblarni, balki turli qutticha, tomosha qovoq kabilarni bezatishda ham keng qo'llanilmoqda. Shuningdek bu tur mustaqqil san'at sifatida yildan-yilga ommalashib bormoqda.

Dekorativ rang tasvir asarlari mustaqil amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u binolarning ichki va tshqi devorlarini bezatishda keng qo'llaniladi. Ular panno shaklida, shuningdek, qutticha, patnis sandiq, shkaflarni bezatishda qo'l keladi. Bino ichini bezatishda xizmat qiladigan naqshlar frizlar, namoyon kabi mayday elementlar ham dekarativ rang tasvirga kiradi. Teatr dekarativ rang tasviri spektakl dekoratsiyalari, unda ishlatiladigan grim, sahna jihozlari bilan bog'liq. Ular teatr rassomi tomonidan tayyorlanib spektakl mazmunini tamoshabinga keng va chuqurroq sindirishga yordam beradi. Bu bezaklarda rassomlar sahnaning

yoritilishi va ranglarga alohida e'tibor qaratadilar. Spektakl bezaklari unga ifodalangan voqea sodir bo'layotgan joy, davr, muhit to'g'risida tomoshabin tasavvurlarini boyitadi, voqealarni idrok etishni osonlashtiradi va faollashtiradi.

Haykaltaroshlik ham huddi rang tasvit kabi hayotiy voqea va hodisalarni turli uslub va tasvirlash texnikasi hamda materialaar yordamida ifodalaydi. Haykal taroshlikda tosh metal, gips, yog'och, vosk (mum), sim kabi materiallar keng qo'llaniladi. Haykaltaroshlik asarlari kesish, yopishtirish, ulash va o'yish, quyish orqali bajariladi. Haykallarning asosan ikki turi mavjud bo'lib, ularning birinchisi to'liq yumaloq haykallar, ikkinchisi esa relefli- bo'rtma haykallardir. Yumaloq haykallarni har tomondan ko'rish mumkin bo'lsa, relefli haykallarni faqat bir tomondan, ya'ni oldindan ko'rish kerak bo'ladi.

Grafika "grafika" - lotincha so'z bo'lib "yozaman, chizaman" degan ma'noni bildiradi va tasviriy san'atning turlaridan biri hisoblanadi. Grafikaning turlaridan biri gravyuradir. "gravyura" fransuzcha so'z bo'lib kesish ma'nosini bildiradi. Bunda rasmlar qattiq materiallarda chizish va keshish orqali bajariladi. Bu rasmlar qattiq materiallarga chizish va kesish orqali bajariladi. Bu rasmlar avvalo metal, yog'och, linoleum, tosh kabi materiallarda ishlanib, keyin undan qog'ozga ko'p tirajda ko'chiriladi. Metallda tayyorlanadigan gravyurani ofort, yog'ochdagisini ksilografiya, linoliumdagisini linogavyura, tosh orqali tayyorlanadiganini esa litografiya deb yuritaladi. Grafika asarlarining qo'llanish sohalari nihoyatda kengdir. Xususan, estampo, kitob illyustrasiyalari plakat, pochta markalri, gazata-jumal bezaklari karikaturalar, (hajviy rasmlar) etiketka va o'rama (upakovka)lar, teat va kino afishalari, yo'l va tavar belgilari, tashkilot va muassasalarning ish blankalari shular jumlasidandir.

Grafikaning uziga xos xususiyatlaridan y ana biri bu - uning katta o'lchamda bo'lmasligi va bo'yoqlar sonining chegaralanganligi hisoblanadi. Shuning uchun ham grafika asarlarida faqat chiziq yoki to'q rangli tasvir ishtirok etadi. Ba'zan grafik tasvirlar rangli bo'ladi.

Ayrim grafik asarlari katta o'lchamda va ko'p nusxada tayyorlanadi hamda katta tarbiyaviy vazifalarni bajaradi. Bu plakatlardir. Grafika san'atida estamp ham katta o'rinni egallaydi. "estamp " fransuzcha so'z bo'lib, shtamplash so'zini bildiradi.

Estamp uchun shuni narsa xarakterliki, unga gravyura bosmadan chiqqandan so'ng rassom unga ba'zi bir tuzatishlar kiritadi va asar tagiga o'z imzosini qo'yadi.

Grafika texnikasining keng tarqalgan turlardan yana biri bu illyustrasiyalardir. Qadim-qadimda tasviriy san'at kitob bezagi bilan chambarchas bog'langan holda rivoj topgan. O'rta asrlarda sharq va g'arb mamlakatlarda yaratilgan kitoblarning deyarli ko'pchiligi naqshlar va rangli rasmlar bilan bezatilgan. Bu rasmlarda kitob mazmumi o'z aksini topar edi. Keyinchalik, kitob bosish dastgohlari ixtiro qilinganidan so'ng, illyustrasilari kitoblarda yanada katta o'rin egallay boshladi. Illyustrasiyaning ahamiyati shundaki, birinchidan u kitobni bezakli chiroyli va yoqimli bo'lishiga yordam beradi, ikkinchidan adabiy obrazlar - timsollarni aniq va jonli bo'lishiga, o'quvchining yodida yaxshi saqlanib qolishiga xizmat qiladi.

Rassom bror bir adabiy asarga illyustrasiya ishlashga kirishishdan avval, mazkur asarni yaxshilab o'rganib chiqishi bilan bir qatorda, asardagi voqea sodir bo'layotgan davrga doir materiallarni ham to'plashi o'sha davr odamlarining madaniyati va turmushuni, mamlakat tabiatini bilib olishini kerak bo'ladi.

Karikatura ham grafikaning bir turi hisoblanadi. Unda hayotdagi ayrim salbiy hodisa va ko'rinishlar, shaxslar hajviy yoki hazil tarzda rasmlar orqali tanqidiy tasvirlanadi.

Grafikaning reklama, afisha, etiketka, o'rama kabi turlari ham keng tarqalgan. Gazeta, jurnal grafikasi shriftlar bilan bog'liq bo'lib amaliyotda keng qo'llaniladi.

Tasviriy san'tning janrlari:

Tasviriy san'atda manzara, maishiy, natyurmort, portret, tarixiy, animal, (hayvonot olamiga oid) afsonaviy, dengiz navislik, nyu interyer janrlari mavjud.

Janr rassom nimani tasvirlayotganligiga qarab belgilanadi. Masalan, asarlarda odam rasmi ishlansa, ular "portret" tabiat va shahar ko'rinishlari tasvirlansa, "manzara", turmush va mehnat jarayonlari tasvirlansa "maishiy"janriga xos bo'ladi.

Shuningdek tarixiy voqealarni tasvirlash tarixiy janr, hayvonlarni tasvirlash animal jam- deb yuritiladi. "Animal " janri lotincha anima so'zidan kelib chiqqan bo'lib hayvon ma'nosini anglatadi. "batal" janri esa fransuzcha batay so'zidan kelib chiqqan bo'lib, jang ma'nosini bildiradi. "Nyu" janri fransuzcha so'zidan kelib chiqqandir. Ayrim asarlar bir paytning o'zoda ikki va undan ortiq janrlarga mansub bo'lishi mumkin. Masalan, portret va nyu, dengiz navislik, interyer, manzara va hokazolar.

Har bir janr o'z o'rnida yana bir qancha janrlarga bo'linishi mumkin. Masalan manzara janridan dengiz navislik, tarixiy janridan batal, manzara janridan interyer ajralib chiqqan.

Manzara janri tasviriy san'atda tabiat, shahar industrial- sanoat, interyer ko'rinishlarining tasvirlanishi manzara janriga taalluqlidir. Manzara janridagi asarlarning ayrimlari bevosita tabiatning haqiqiy, ya'ni hayotiy ko'rinishini tasvirlasa, boshqalarida borliq ijodiy tarzda, xayolan ifodalangan bo'ladi. Ba'zan bu ikki hoi bir asarda kuzatilishi mumkin.

Manzara janri ko'proq rang tasvirda, qisman grafika va haykaltaroshlikda qo'llaniladi.

Naturmort janri "naturmort" so'zi fransuzcha bo'lib jonsiz narsalar natura ma'nosini anglatadi. Bu janrdan asosan rang tasvir va grafika asarlari da keng qo'llaniladi.

Maishiy janr. Bu janrdagi asarlar kishilarning maishiy turmush tarsi, mehnati, kundalik hayoti bilan bog'liq bo'lib, ularda ko'proq oila maktab, dam olish, shaxsiy va ijtimoiy hayot jarayonlari aks ettiriladi. Maishiy janrdagi asarlar

nafaqat hozirgi kun odamlarining balki o'tmishdagi kishilarning turmush tarzi va hayoti haqida ham keng ma'lumot beradi.

Portret janri "portret" fransuzcha portrarit so'zidan olingan bo'lib, kishilarning chehrasini xuddi o'ziga o'xshatib tasvirlash ma'nosini bildiradi. Portretida kishilar yakka, ikki kishi yoki bir guruh sifatida tasvirlanishi mumkin.

Tarixiy janr. Bu janrda insoniyat tarixidagi muhim voqealar va qahramonlar hayoti tasvirlanadi. Rassom bronza tarixiy voqealar ko'rinishini tasvirlash uchun avvalo o'sha voqeaning boshqa tarixiy voqealar orasidagi o'rni va muhimligini aglab yetishi kerak bo'ladi shuning uchun u o'sha voqea sodir bo'gan davr haqidagi adabiy manbalarni, tarixiy memorchilik obidalari hamda u yerdan topilgan arxeologik topilmalarni o'rganadi, ular asosida qoralama ranglar yaratadi. Mavzuga aloqador tarixchilar bilan suhbatlashish voqea mazmunini hamda yaratiladigan asar detallarini aniqlashtirishga yordam beradi.

Batal janri. Bu janrdagi asarlarda rassomlar urush jarayonlarini zavq -shavq, ko'tarinkilik qahramonlik kabi tuyg'ular bilan ifodalashga harakat qiladilar.

Animal janr. Bu janrdagi asarlarga anima so'zidan kelib chiqqan bo'lib jonlashtirish demakdir. U tasviriy san'atning barcha turlarida mavjud.

Afsoviy janr. Afsonaviy janrdagi tasviriy san'at asarlarda hayotda uchramaydigan, biroq xalq tomonidan xayolan o'ylab topilgan odam va hayvonlar, baliqlar, voqea hamda hodisalar tasvirlanadi.

Dengiz navislik. (marinizm). Marina fransuzcha so'z bo'lib, dengiz ko'rinishi ma'nosini bildiradi.

1.2§. Tasviriy san'atning mustaqillik yillarida rivojlanishi.

O'zbekiston tasviriy dastgoh san'ati juda qisqa vaqtda rivojlanib, katta yutuqlarga erishdi. O'zbekiston san'ati zafarli yo'lni bosib o'tdi. Respublikamiz rassomlari ko'pgina ko'rgazmalarda faol ishtirok etib, san'atimiz ta'sirchanligining ortib borayotganini namoyish etdilar. Bizning rassomlarimiz ko'pgina janrlarda ijod qilib kelmoqdalar, manzara, natyurmort, portret va boshqa. Natyurmortda bozorlarimizning to'lib toshgan noz-ne'matlarini, manzara janrida esa, o'lkamizning go'zalligini va bepoyonligini, oddiy tabiat ko'rinishidagi go'zallikni to'laqonli ifodalashga harakat qilmoqlar. Shu bilan birga qadimdan qolgan butun dunyoga taniqli ajib me'morchilikning nodir yodgorliklarini o'z asarlarida ko'rsatdilar. Portret janrida esa Vatanimizning ilg'or kishilarini, mehnatkash xalqni, shoir, rassom, musiqachilarni tasvirladilar. Bizning O'zbekiston Vatanimiz ajoyib iste'dodli rassom va haykaltaroshlarni yetkazib berdi. Bular ichida Iskandar Ikromov, Chingiz Ahmarov, Malik Nabiev, Mannon Saidov, Damir Ro'ziboev, Ilhom Jabborov, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, Alisher Mirzaev, Akmal Ikromjonov, Ne'mat O'akimov, Osimxon Vosixonov, Temur Sa'dullaev, G'ofur Abdurahmonovlar alohida mavqega ega. O'zbekiston xalq rassomi Alisher Mirzaev rangtasvir ustasi xalqimiz an'alariga, boy va sermazmun o'tmish tasviriy san'at merosiga hurmat bilan qaraydi. Rassom o'z xalqiga xos psixologik kechinmalarni chuqur tahlil qila oladi. Rassom ona-tabiat bag'rida o'zbekona an'analarni, to'ylarni, beg'ubor o'zbek bolalarini, lo'bar qizlarni, mushtipar onalar kabi obrazlarni aks ettira olishga muvaffaq bo'ldi. Jumladan, "Toshkent - tinchlik va do'stlik shahri" triptixi, "Bola xonada", "Intizorlik", "Yosh oila haqida qo'shiq" kabi o'nlab asarlar moybo'yoqda yaratilgan. Umuman rassom tabiat va jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarni e'tiborsiz qoldirmaydi. Rassom rangtasvirlarga shunday jon bag'ishlaydiki, undagi go'zallik sirlari odamlarni ezgulikka etaklaydi. Rassom asarlari bugungi kunda xalqimiz hurmatini qozonish bilan birga, ko'pgina xorijiy davlatlarda ham ma'lum va mashhurdir.

Bahodir Jalolov ham O‘zbekiston xalq rassomi bo‘lib, zamonaviy rangtasvir san‘ati rivojiga katta hissa qo‘shib kelayotgan iste’dodli rassomlardan biridir. B.Jalolov tasviriy san‘at borasidagi tahsilni davom ettirib, keyinchalik Ch.Ahmarov, R.Choriev, E.P.Melnikov, B.D.Korolyovlardan tasviriy san‘at sirlarini o‘rgandi. Shu sababli ham u yaratgan portretlarda yuksak mahorat aniq ko‘zga tashlanib turadi. Uning ijodidagi tuyg‘ular uyg‘unligi tomoshabinni o‘ziga mahliyo etib qo‘yadi. U portret san‘atida ko‘p yutuqlarga erishdi. Uning to‘laqonli asarlarida o‘zbek xalqining sevimli farzandlari siymosi o‘z ifodasini topgan. U bir katta seriya portretlarni yaratadi, bular ichida akademiklar, rassom va boshqa taniqli odamlar obrazlari bor. B.Jalolov ijodida olam sirlari o‘zgacha talqin etiladi. Bunga, “Gul va Rayhon afsonasi”, “Nido”, “Baxt qushi”, “Abadiy va navqiron Xindiston”, “XXI asr Madonnasi” kabi ko‘plab asarlarini misol qilib keltirish mumkin. Mustaqil O‘zbekiston tarixiga bag‘ishlangan O‘zbekiston xalqlari tarixiy muzeyi devoriga ishlangan monumental ko‘rinishdagi surat jiddiy va mazmunli tarixiy dalillar orqali salobatli tasvirlanishi bilan har qanday tomoshabin e‘tiborini o‘ziga jalb qila oladi. Polotnoni kuzatgan tomoshabin boy tarix sahifalariga ega bo‘lgan o‘zbek xalqining buyuk va qudratli ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qiladi. B.Jalolov ijodi shu jihati bilan qadrlidir.

Xaykaltaroshlik san‘atining o‘lkamiz hududidagi zamonaviy jihatlarini ijodkor Damir Ro‘ziboev faoliyatida yaqqol qurish mumkin. Dastlab rangtasvir va grafika san‘ati bilan shug‘ullangan D.Ro‘ziboev haykaltaroshlik olamiga asosan 60 yillarda kirib keldi. San‘atkor ijodida shakl va hajmlarning o‘ziga xosligini harakatlarni tabiiylik bilan tasvirlanishi, u tanlagan mavzularning rang-barang va keng qamrovligidan ham yaqqol sezish mumkin. Uning bir qancha haykallarida xalqimizning madaniy hayoti va ziyolilar qiyofasini aks ettirgan asarlariga duch kelamiz. Shu bilan birga u portret janrida ham ijod qiladi. San‘atshunos olim R.Toqtash obrazi, rassom V.Savitskiy va Saida portretlarida zamondoshlarimiz obrazlari to‘laqonli o‘z ifodasini topgan. D.Ro‘ziboev haykaltaroshlik san‘atida katta bir maktabni o‘tab kelayotir. Uning izlanishlari rang-barang uslublarga boy.

Buni biz san'atkor ijodida rangli haykaltaroshlik san'atining yuzaga kelganligi orqali guvohi bo'lishimiz mumkin. Ro'ziboev haykallaridagi shakl va hajmlarga bo'yoq berish bilan ularning sehri olamini yanada mo'jizali qila oladi. San'atkor bu bilan qoniqmasdan haykalda aks ettirilayotgan voqeani rangin sirlarini matolarda yanada to'ldiradi. Yana bir muhim tomoni D.Ro'ziboevning izlanishlari kelajak muammolarini talqin qilishga qaratilgan. San'atkor ko'tarinki ruh bilan musiqa, rangtasvir asarlarini o'rganib, o'z haykallarida mujassamlashga intiladi. Haykaltaroshning ajoyib fazilatlaridan yana biri uning asarlarida hissiy mazmundorlik boyib borayotganligidadir. Ana shunday mazmundorlik orqali u inson ma'naviyatini tobora to'laroq qamrab ifodalashga harakat qiladi. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixi - jahon tasviriy san'ati tarixining ajralmas qismidir. O'zbekiston san'ati boy merosga ega. Hozirgi zamonda esa bizning rassomlarimiz va haykaltaroshlar butun dunyoga taniqli bo'lib qolgan. Dekorativ-amaliy san'atimiz esa qadim zamonlardan odamlarni zavqlantirib kelgan. Ustalarimiz ijodi nafaqatgina mustaqil O'zbekistonda, balki boshqa mamlakatlarda ham o'z obro'e'tiboriga ega.

II bob. Tasviriy san'at ta'limining maqsad va vazifalari.

2.1§. O'rta maktabda tasviriy san'at mashg'ulotlarining maqsad va vazifalari.

1. Tasviriy san'at darslarining o'ziga xos, maxsus vazifalari hisoblanib ular: borliqdagi va san'atdagi go'zalliklarni ko'ra bilish, idrok etish, tushinish va qadrlashga o'rgatish; estetik va badiiy didni o'stirish; bolalar badiiy fikr doirasini kengaytirish; badiiy ijodiy qobiliyat va fantaziyani rivojlantirish; tasviriy san'atning nazariy asoslari (yorug', soya, rangshunoslik, perspektiva, kompazitsiya) bilan tanishtirish; rasm ishlash, haykal yasash, badiiy qurish-yasash yuzasidan elementlar, malakalar hosil qilish; kuzatuvchanlik, ko'rish xotirasi, chamalash qobiliyati, fazoviy va obrazli tasavvurlarini, abstrakt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish; tasviriy, amaliy me'morchilik san'at asarlarini tushungan holda o'qiy olishga o'rgatish; san'atga nisbatan qiziqish uyg'otish uni qadrlashga, sevishga o'rgatish.

2. Tasviriy san'at darslarining qo'shimcha vazifalari, ular; borliqni, hayotni bilishga ko'maklashish; milliy g'urur va milliy istiqlol mafkurasini amalga oshirish; bolalarga axloqiy (vatanparvarlik, baynalminnal); mehnat, jismoniy tarbiyani amalga oshirish; bolalarni turli kasb va hunarga yo'llash.

Tasviriy san'at o'quv predmetining maqsadi va vazifalari haqida to'xtalganda yana shuni qayd qilish lozimki, u maktabda o'qitiladigan deyarli barcha o'quv predmetlari bilan bog'lanadi va ular yuzasidan materiallarni o'zlashtirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa u o'qish, adabiyot, geografiya, tabiatshunoslik, biologiya, tarix, matematika, mehnat darslarida alohida ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san'at, hattoki, jismoniy tarbiya, kimyo, musiqa darslari uchun ham foydali-dir. Shuni ham qayd qilish lozimki tasviriy san'at estetik tarbiyani amalga oshirishga qaratilgan bo'lsada u axloqiy, mehnat, ekologik, jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Maktabda tasviriy san'at estetik tarbiyani amalga oshirishga yo'naltirilgan asosiy o'quv predmeti hisoblanib, u quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- o'quvchilarning tabiat, san'at va hayotdagi go'zalliklarni idrok etishga o'rgatish:

- o`quvchilarning estetik didini tarbiyalash, go`zallikni baholay olish qobiliyati, haqiqiy go`zallikni xunuk voqea va narsalardan farqlay bilishga o`rgatish;
- shaxsning tasviriy-ijodiy faoliyatida o`zini ko`rsata bilishga, hatti-harakatini qo`llab-quvvatlash va hayotga go`zallik kiritish malakalarini o`stirish:
- bolalarning badiiy fikr doirasini kengaytirish va boshqalar.

O`quvchi maktab binosiga, uning yonidagi uchastkaga, o`yin hamda sport maydonchalariga qarab, ulardagi go`zallikni his etishi, umuman maktabning qiyo-fasi undan o`zi bilim oladigan muhit haqida ijobiy tasavvur hosil qilishi lozim. Bunda puxta o`ylab, chiroyli qilib bezatilgan va aloxida e'tibor bilan qarab turiladi-gan tabiat burchagi, did bilan ishlov berilgan yo`lakcha va gulzorlar, maktab hov-lisiga kiraverishdagi memorial taxta, kosmosni zabt etish, mehnat, harbiy jasorat ko`rsatgan o`g`lonlarimiz kabi temalardagi stendlar, maktab binosining joylashishi tasvirlangan panolar va hokazolar katta yordam beradi. Mana shularning hamma-sida mazkur maktabga xos badiiy bezash uslubi, turli xildagi go`zal partretlar ko`zga yaqqol tashlanib turishi shart.

Maktab binosining kiraverishda unga nomi berilgan shaxsning byusti yoki portreti, prezident burchagi, o`quvchilarning ijodiy ishlaridan namunalar ko`zga tashlanib turishi kerak. Imkoni bo`lsa, mehnatda ibrat kursatgan ota-onalarning rasmlari qo`yilgan stend tayyorlash ham maqsadga muvofiq.

Tasviriy san`at o`quv predmeti har har bir inson uchun zarur bulgan badiiy madanyatga doir elementar bilim va malakalar beradi. Chunki har bir uquvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar u ishdan tashqari vaqtlarida dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi kerak bo`ladi. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan san`at asarlari bilan muzey, ko`rgaz-malar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi. O`quvchilar o`zlarining kelajak hayotlarida ma`lum miqdorda rasm ishlashlariga to`g`ri keladi.

Tasviriy san`at o`quv predmeti o`z xarakteriga ko`ra estetik tarbiyaning asosini tashkil etuvchi estetik idrok, estetik zavq, estetik his- tuyg`u, estetik did, estetik mulohaza, estetik baholash, estetik ijod kabi sifatlarni o`stirishda katta rol o`ynaydi. Dekarativ kompazitsiya darslarida o`quvchilar naqshlar, amaliy san`at buyumlaridagi go`zallikni his qiladilar va o`zlari ham shunday kompazitsiyalar tuzishga harakat qiladilar.

O`quvchilarni tabiatdagi narsalarning yorqin va yaltiroqligi, nafis va tozaligi, ular bo`laklarining qaytarilishi yoki almashinishi, simmetrik tarzda joylashuvi to`lqinlantiradi. Tabiatdagi gullarning rang va shakllarining turli-tuman bo`lishi, kapalak va ninachilar, qushlarning engil pardozi, bahorgi va kuzgi manzaralarning chiroyi, majnuntolning suluvligi, maysazorlarning quyosh nuri ostida jilvalanishi, uy derazalarning kechki miltllab ko`rinishi hayajonlantiradi. Bolalarda bunday his tuyg`uning o`sishi, ularda predmet va hodisalar xususiyatlarini estetik baholashn malakalarining shakllanishiga olib keladi. Bolarning faoliyatlarida obrazli iboralar- ning, ya`ni “xush bichim”, “quvonchli”, “bayramdagidek” ishlatilishi ularda borliq va hodisalarni estetik idrok etish malakalari shakllanayotganligidan dalolat beradi.

O`qituvchi shoxcha va barg chiqargan daraxtlarni bolarga ko`rsatish orqali yosh barglarni rangi och-yashil va nozik ekanligini qayd etadi. Bahorgi yomg`irdan so`ng o`simlik barglarining tozaligini, ularni xuddi yuvib qo`ygandek ko`rinishi, ulardagi yomg`ir donalarining kumushdek yaltirrab ko`rinishini ta`kidlaydi. Kuz faslidagi tabiatda daraxt barglarining sariq va qizg`sh ranglarining oltin tusga kirganligini, to`kilgan barglarining shildirab “gaplashishi” obrazli ko`rinishda ifo- dalanadi.

Bolalar o`z rasmlarida uy, daraxt, qushlar, hayvonlar, odamlar, transport vositalarini tasvirleydilar. Bundan ular so`zsiz tasvirlanuvchilarning o`lchovlari, proporsiyalari, fakturasi, shakllari, rangiga duch keladilar va ularni rasmda kom- pazitsion jihatdan to`g`ri joylashtirishga harakat qiladilar. Bu esa ularning tuzilishi- dagi proporsionallik, mukammallik, maqsadga muvofiqlik haqida fikr yuritishga undaydi. Bolalar narsa va hayvonlarni shakl va rang jihatidan o`ziga jalb etadigan tomonlari, ularni qaysi tomondan chiroyli ko`rinishi, ularning yaxshi va foydali

tomonlari nimada ekanligi haqida o`ylaydilar. O`quvchilar tabiatdagi narsa va hodisalar haqida o`ylar ekanlar, o`qituvchi o`z e`tiborini ularning tushunchasiga mos bo`lgan voqea va hodisalarning go`zalligi va mukammalligiga qaratadi. U go`zallik kechinmalari orqali bolalarni tevarak-atrofdagi hodisa va voqealarni baholay olishga o`rgatishga harakat qiladi, insonparvarlik, vatanga muhabbat, mehnatga ishtiyoq his-tuyg`ularini uyg`otadi.

Tasviriy san`at bolalarni borliqni, hayotni bilishga yordam beradi. Ular narsa va hodisalar rasmini chizishga kirishishdan avval narsalarning tuzilishi, shakli, o`lchovlari, rangi, fazoviy holatlarini o`rganadilar va ularni o`z ishlarida tasvir- laydilar. Kuzatilayotgan jonli narsalarning hayoti haqida ham tasavvurga ega bo`ladilar, natijada bolalarning dunyo haqidagi tasavvurlari chuqurlashadi kengayadi, xotiralari rivojlanadi.

Tasviriy san`atning tarixiy, batal janridagi rangtasvir asarlari, adabiy asar- larga ishlagan ilyustratsiyalarni kuzatish asosida bolalar ming yillar oldin yashab o`tgan ajdodlarimizning turmush tarzi, madaniyati, kiyinishi, ish qurollarini bil- oladilar. O`sha davrdagi binolar, o`simliklar, hayvinlar, buyumlarning tuzilishi, shakli, rangi, o`lchovlari haqida tasavvurga ega bo`ladilar. Ma`lumki bolalar, tarixiy, batal, manzara, turmush, natyurmort, animal, afsonaviy janrlarda ishlagan rasmlarda tarixiy voqealar, jangu-jadallar, xalqlar hayoti, hayvonlar, shahar va tabiat manzaralari haqida ko`pgina bilimlarga ege bo`ladilar.

Tasviriy san`atni o`qitish jarayonida, qo`yiladigan topshiriqlar o`quvchilarni birdan-bir va betakror o`z shaxsini, aqliy imkoniyatlarini namoyon etishga yo`llaydi. Bolalar o`quv topshiriqlarini echishda o`zlarini ijodkor bo`lishga unday- dilar. Ular ijodkor uchun avvaldan ma`lum bo`lgan yo`ldan muammoni tez va oson hal qilib qo`yaqolmay, balki masalani yangicha, qaytarilmas echimlar orqali ular- ning ijodkorlik va hayolotlarini, me`yor va uyg`unlik sifatlarini ishga soladilar. Na- tijada, ma`lum miqdorda original, yangi qaytarilmas ijod mahsuli dunyoga keladi.

Ijodkorlik, ijodiy fikrleydigan shaxslar ular oddiy ijrochilar emas, ular jami- yatni rivojlantiruvchi asosiy kuchidir. Shuning uchun ham jamiyatimizga robotsi- mon ijrochilar emas, fikrlovchi, izlanuvchan, ijodkor, tashabbuskor kishilar kerak.

Jamiyatimizning ravnaqi ko`p jihatdan mashunday kishilarga bog`liqdir. Jamiyatimizda fikrlaydigan, izlanuvchan, ijodkor, hayotda ko`zda tutilmagan har qanday vaziyatlardan muammoni tez va oson echimini topa oladigan kishilar xalqimizni taraqqiyotini yangi bosqichlarga ko`taradilar.

Ijodiy tafakkur butunlay yangi g`oyalar va tasavvurlarni vujudga keltiradi, shaxsda yashiringan qobiliyat va imkoniyatlarni, o`ziga xoslikni ro`yobga chiqishiga yordamlashadi. Shuni ham alohida qayd qilish lozimki, bunday sifatlar faqat olimlar uchunguna emas, balki hamma sohada ishlovchilar (injinermi, vrachmi, dehqonmi, nonvoymi v.b) uchun muhimdir.

Tasviriy san`at o`quv predmetining muhim vazifalaridan biri u bolalarda kuzatuvchanlikni o`stirish, borliqni ko`ra bilish, qolaversa shu orqali xotirani rivijlantirish hisoblanadi. Ma`lumki, odamzod tevarak-atrofdan olayotgan axborotlarning deyarli 90% dan ortig`ini ko`z orqali oladi, qolgan 10% ni quloq, burun, og`iz v.b. a`zolar orqali o`zlashtiradi. Bundan ko`rinib turibdiki, kishilar faoliyatida ko`z va xotirani rivojlantirish nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Bu sifatlar bolalar tomonidan borliqni idrok etish mashg`ulotlarida, shuningdek, naturadan tasvirlash, san`atshunoslik asoslari mashg`ulotlarida alohida ahamiyatlidir. Bunday darslarda o`quvchilar narsalar va hodisalarning tuzilishi, shakli, rangi, o`lchovlari, fazoviy joylashishi, harakat go`zalligini kuzatadilar hamda ularni o`z xotiralarida saqlab qolishga harakat qiladilar.

Kuzatuvchanlikni mohiyati shundaki, bunda bolalar narsa va hodisalar haqida keng va chuqur tasavvurga ega bo`ladilar. Masalan, kuzatuvchanligi rivojlanmagan kishilar gulni kuzatar ekanlar, unga nisbatan yuzaki yondoshadilar, ya`ni gul bandi, guli, yaproqlari, gul rangiga o`z e`tiborlarini qaratadilar.

Kuzatuvchanligi rivojlangan kishilar esa gullarning gul bandi, guli, yaproqlari va boshqalarning o`lchovlari, o`lchov nisbatlari, har bir qismning rangi, yaproq va gulbarglarning joylashuvini bir ko`rishdayoq eslab qoladilar. Bolalarning kuzatuvchanligi va sinchkovligi, o`z o`rnida narsalar haqidagi ma`lumotlarni xotirada yaxshi saqlanib qolishga ta`sir ko`rsatadi. Shuning uchun ham xotirani

ayniqsa, ko`z xotirasini rivojlantirishda tasviriy san`at o`quv predmetining qanchalik ahamiyatli ekanligi oydinlashadi.

Tasviriy san`at darslarining eng muhim vazifalaridan biri tasviriy, amaliy va me`morchilik san`atlari asarlarini o`qishga o`rgatishdir. Tasviriy san`at asarlari ertak, hikoya, doston, roman kabi ma`lum bir mazmunni aks ettiradi. Biroq uni kitob o`qigandek o`qib bo`lmaydi. Tasviriy san`at asarlarini o`ziga xos tili bor. Ularni bilgan kishilargina o`qiy oladilar. Xususan rassomlar, chiziqlar, ranglar, o`lchovlar, kompazitsiya, proporsiya, ritm, simmetriya shakl kabi ifodalilik vositalari yordamida asar mazmunini ochib beradilar.

Tasviriy san`at o`quv predmeti yoshlarning estetik tarbiyasida ahamiyatli bo`libgina qolmay balki, axloqiy tarbiyada ham salmoqli o`rinni egallaydi. Ayniqsa, tasviriy san`at darslari yoshlarda milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishda, vatanparvarlik va baynalbinnal tarbiyada, do`stlik va o`zaro yordam g`oyalarini tashkil toptirishda katta kuchga ega. Maktab tasviriy san`at dasturiga nazar solar ekanmiz unda Vatanimizning buyuk o`tmishi, vatandoshlarimizning mustaqillik uchun olib borgan kurashlari, O`zbekistonning nafosatga to`la tabiati, xalqlar do`stligi g`oyalarini ifoda etuvchi tasviriy san`at asarlari bilan to`lib toshganligining shohidi bo`lamiz.

Masalan ona tuproq uchun kurash olib borgan, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Spitamen, Muqanna kabi buyuk vatandoshlarimiz hayoti va obrazlarini, O`zbekistonning rango-rang go`zal manzaralarini, o`zbek xalqining Respublikamizda yashayotgan boshqa millat vakillari bilan tinch-totuv mehnat qilayotganligini tasvirlovchi tasviriy san`at asarlari mavjud. Ularni o`rganish jarayonida bolalar san`atining qonun va qoidalari bilan tanishadilar, yuqorida qayd qilingan mazmunda rasmlar ishlaydilar.

Inson uchun zarur bilimlar miqyosi tobora kengayib borayotgan hozirgi sharoitda muayyan faktlar yig`indisini o`zlashtirish bilan cheklahnib bo`lmaydi. Shuning uchun o`quvchilarga o`z bilimlarini mustaqil ravishda to`ldirib va boyitib borishni, o`zining diqqat-e'tiborini ilmiy va siyosiy axborotlarning eng muhimlariga qaratishni o`rgatish kerak. Bu vazifa o`quvchilarning tasviriy san`at darslar

ini ta'lim-tarbiya jarayoni bilan uzviy bog`liq xolda kengaytirish va rivojlan tirishni taqozo etadi.

Rasm chizishni bilish, faqat rassomlar, dizaynerlar, me`morlar uchungina emas, u o`qituvchilar, injinerlar, mediklar, quruvchilar, agronomlar, harbiylar, olimlar uchun ham zarurdir. Maktablar o`z nomiga ko`ra umumiy o`rta ta`lim maktablari deb nomlanib, bolalarga boshqa fanlar qatori tasviriy, amaliy va me`mor-chilik san`atlaridan umumiy, elementar bilim va ko`nikmalar berishni vazifa qilib qo`yadi. Yana shuni ham ta`kidlash kerakki, umumiy o`rta ta`lim maktablari rassomlarni tayorlamaydi, iqtidorli bolalar bilan ishlash, ularni rivojlantirish bilan ham shug`ullanishni nazarda tutmaydi.

Rassomlar tayyorlash, iqtidorli bolalar bilan ishlash maktab to`garaklarida, maxsus maktab va akademik litseylarda, kollej va oliy o`quv yurtlarida amalga oshiriladi. Shuning uchun umumiy o`rta ta`lim maktablarida hadda ziyod bolalarni qiynab qo`yadigan, ortiqcha zo`riqishga olib keladigan topshiriqlar berishga harakat qilish to`g`ri emas.

Umumiy o`ra ta`lim maktablarida tasviriy san`at o`quv predmetining maqsadi barkamol, komil insonni uning badiiy madaniyatini shakllantirishga qaratiladi.

2.2§. O'rta maktab tasviriy san'at o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasidagi roli va o'rni

Insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi san'atdir. U musiqa, teatr, kino, badiiy adabiyot, xoreografiya, tasviriy va amaliy bezak san'ati kabi boshqa turlarini o'z ichiga oladi. San'atning har bir turi o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni aks ettirishda har xil vositalardan foydalanadi, masalan, adabiyot - so'zdan, musiqa - tovushlardan, tasviriy san'at - rang va chiziqlardan va hokazo. Shu bilan birga, har bir san'at turi o'z ichida yana xillarga va janrlarga bo'linadi.

San'atni tushunish, uning kishilar hayotidagi rolini aniqlash masalasi butun madaniyat tarixi davomida keskin bahs, tortishuvlarga sabab bo'lib kelgan.

San'atning eng qadimiy va keng tarqalgan turlaridan biri - tasviriy san'atdir. Odatda real borliqni badiiy obrazlarda, mavjud predmetlarni tabiiy shaklirri o'ziga o'xshatib umumlashtirib ifodalaydi hamda predmetlarning hajmi, o'zaro fazoviy joylashuvini va hokazolarda aks ettiradi. San'atkor o'z asarida voqea, hodisa, holatning ma'lum bir zumdagi ko'rinishini ifodalab, u tasvir orqali rivojini, mohiyatini ochib berishga intiladi, kishilarning ma'naviy qiyofasi, psixologik holati va boshqa fikrlarni ilgari suradi va tasavvur qiladi.

Rassom biror shaxsni rasmini ishlar ekan, u hech vaqt uni faqat o'ziga o'xshatishga ishtilish bilan chegaralanmaydi. Rassom shu ishlayotgan tasvir orqali avvalo o'zining fikr va tuyg'ularini tomoshabinga yetkazishga harakat qiladi. Ishlamoqchi bo'lgan tasvirida avvalom bor g'oyasiga mos mavzu, syujet tanlaydi, voqea kompozitsiyasini quradi, shu yo'lda izlanadi, dastlab hayotni o'rganib, naturani kuzatib, eskizlar chizadi, etyudlar yaratadi. Rassomlik san'atida predmetlarning shakli, hajmi, rangi, ularning o'zaro muvozanatini to'g'ri ko'rsatishda rasmni aniq va to'g'ri ishlashning juda muhim ahamiyati bor.

San'atkor o'z asarida real borliqda uchraydigan, balki inson fantaziyasi mahsuloti bo'lgan voqea va predinetlar ham aks ettirilishi, hayotda mavjud bo'lgan hodisalarning ayrim jihatlari o'zgartilib, bo'rttirib ko'rsatishi ham mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, tasviriy san'at asarlari - msondagi ajoyib fazilat - borliqni bilish. uni o'rganish va sirlarini ochishga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga ta'sir ko'rsatadi.

Tasviriy san'at inson ongiga tezda ta'sir etib, unda ezgu hislar uyg'otadigan, kishini ruhlantirib, ma'naviy olamini boyitadigan san'at turlaridan biridir. Shu bilan birga, tasviriy san'at inson shaxsining shakllanishiga va kamolatiga yordam beradigan tarbiyachi hamdir.

Pedagogika instituti va universitetlarining pedagogika va boshlang'ich ta'lim metodikasi fakultetlarida ta'lim oluvchi talabalar tasviriy san'atdan maxsus bilim va malakalarga ega bo'lishi o'quvchilarni badiiy-ijodiy qobiliyatlarini, badiiy didni, rang sezishni, fazoviy tasavvurini, buyuk rassomlar asarlarini go'zaltiklarini ko'ra bilishga va ularni hissiy idrok etishga olib keladi.

Tasviriy san'at o'qitish metodikasi bo'yicha to'la bilimlarga ega bo'lish, ayniqsa, O'zbekistonda va chet ellarda fanning o'qitish tarixi, o'quv fanning maqsad va vazifalari, ta'limning mazmuni, shakllar, usullari haqida chuqur bilimlarga ega bo'lish tasviriy san'at o'qituvchi faoliyatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, bugungi o'quvchi kelajakda ishchi, xizmatchi, dizayn- konstruktor, muhandis, shifokor, o'qituvchi, yurist yoki harbiy mutaxassis yoki biron bir sohani yaratuvchisi bo'ladilar. Ularni har biri uchun rasm chizish, undan foydalanish lozim bo'lacli. Hatto uy bekasi ham rasmni ko'ra olishi, tushunishi, bu zamonning eng zarur faoliyatidir. Hozirgi davrda har bir erkak zoti mashina haydashni, texnika bilan shug'ullanishiga, uy bekalarini esa dazmol, tikuv mashinasi, radio, televizor, kir yuvish mashinalari, muzlatgich. elektr plita, sut, qaymoq olish mashinalari kabi yuzlab texnik buyumlar bilan shug'ullanadilar. Ularga bu asbob-texnika vositalarini ishlatish va ularni sozlash uchun grafik bilim va malakalar darkor. Shu boisdan har bir kishi rasm chizishni, grafik tasvirlarini bilishi maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda har bir shaxsni grafik bilimga ega bo'lishi uning o'ziga ham, jamiyatga ham suvdek zarur. Shunga ko'ra fransuz faylasufi Didro, bundan qariyb 300 yillar avvaldanoq, - «Qaysi bir mamlakatda rasm chizishni o'qish-yozish kabi bilsalar edi, bu mamlakat barcha sohalarda har qanday mamlakatni quvib yetadi va ortda qoldiradi» - degan edi.

Tarix shohidkim, jahonga mashhur geograflar, tarixchi, adabiyotchi, shoir, yozuvchilar, konstruktor va boshqa soha allomalari rasm chizishni juda yaxshi bilganlar. Shunga ko'ra Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Gyote, Gyugo, Anderson, Pushkin, Tagor, Mikluxo-Maklay, Mendeleyev, B.Zokirov kabi turli soha ijodkorlari rasm chizish bilan jiddiy shug'ullanib kelganlar.

Xullas, har bir sohani ijodkori uchun rasm chizishni bilish unga katta ijodiy imkoniyat va ozuqa beradi.

Agar har bir o'qituvchi rasm chizishni bilganda edi, ular dars berishda yuksak samaralarga erishardi, dars mashg'ulotlarini o'zlashtirish ham o'quvchi uchun juda oson va yengil bo'lardi, hatto o'zlashtirmovchi o'quvchini bo'llshi ancha qiyin bo'lardi. Shularga ko'ra bugungi maktab o'quvchilariga badiiy bilim va malaka berishga katta e'tibor berilmoqda.

Rasm chizishni o'rganish uchun alohida iqtidor, iste'dod kerakmi?! Agar astoydil istasa, har kim, qobiliyatidan qat'i nazar savodli chizishga o'rgana oladi. Chizishni o'rganish, savodli yozish yoki maktab matematika kursini o'zlashtirishga qaraganda murakkab emas. Faqat intilish va asosiysi - yaxshi iroda, rasm istalgan kash, istalgan mashg'ulot egasiga zarurligini tushunish kerak.

Chizishni bilgan san'atning barcha turlarini tushunadi, unga avval odatiy ko'ringanlarning barchasida go'zallikni ko'ra biladi: uning fikrlash doirasi keng, ma'naviy dunyosi boy, u qiziqarli va shodon hayot kechiradi.

Chizishni bilish ko'pchilikka: geograf, botanik, geolog, arxitektor, uchuvchi va boshqalarga amaliy jihatdan ham kerak. Masalan, II jahon urushi qahramonlaridan biri - 62 fashist samolyotini urib tushirgan (o'zi biror marta hatto yaralanmagan uchuvchi Ivan Nikitovich Kojedub havo jangi texnikasida unga rasm chizish malakalari ko'maklashganini ta'kidlagan. Rasm chizish tufayli unda snaypercha ko'z o'tkirligi, idrok tezligi va reaksiya tezligi rivojlangan. Axir rassom harakatlanayotgan predmetni nafaqat tez ilg'aydi, balki uni tez chizadi ham. Kojedub dushmanlaridan reaksiya tezligi va aniqligida ustun va shu sababli g'alaba qilar edi.

Muhandis, pedagog, jarroh, astronom ishida rasm chizish foyda bermaydimi.

Buyuk olim, adib va san'at arboblari (Lomonosov, Lermontov, Shevchenko, Siolkovskiy, Timiryazev) tasviriy vositalarni egallaganliklari muhim kashfiyotlarda, durdona badiiy asarlar yaratishda ko'maklashgan. San'at barcha kasb egalariga do'st va hamkor bo'la oladi.

Rassomlarning ko'zi o'tkirligi, idrok va reaksiya tezligi yaxshi ma'lum:

- rassom N. Jukov bilyardda doim g'olib bo'lishi bilan faxrlangan;
- ertakchi rassom Viktor Vasnetsov gorodkini yuqori mahorat bilan o'ynashi ko'pchilikni lol qoldirgan;
- manzarachi I. Levitan miltiqdan Vilgelm Telldek otgan - «o'qni o'qqa» joylagan;

XVI asr italyan zargar va haykaltaroshi Benvenuto Chellini artlleriya sifatida janglarda qatnashgan. «Mening rasm chizishim va ajoyib mashg'ulotlarim yozadi u, - va musiqa chalish go'zalligi. barchasi shu qurollarda «chalishimda» ketdi». Darhaqiqat, ko'z o'tkirligi talab etiladigan o'rinlarda rassomlar oson g'olib bo'lishadi. Mikelandje- lo aytganidek, san'at ularning ko'zlarida sirkul va chizg'ichni bir paytning o'zida joylashtirishga o'rgatgan.

Ram chizish nafaqat ko'rish idroki tezligini, balki yaxshi ko'rish xotirasini ham shakllantiradi. Razvedkasi Iogann Vays (Sasha Belov) maxfiy hujjatlarning ko'plab sahifalarini bir ko'rishda eslab qolgani ko'pchilikka ma'lum. Mo'jizami. Yo'q mo'jiza emas, mashq qilishi.

Rassomlar hamisha ko'rish xotirasi kuchlligi bilan shuhrat qozonib kelgan. I. Levitan o'rtoqlarini lol qoldirgan. Qish tunida bir guruh rassomlar o'rmonga sayrga o'tlanishadi. Ular ertaklardagidek go'zal manzaraga guvoh bo'lishadi - moviy, oy shu'lasini yoritib turgan qorda kul rang-pushti jernovlar va ular uzra qorga o'rangan qarag'aylar. Hamma manzaradan bahra olib, uy-uyiga tarqaydi. Oradan bir necha kun o'tib, rassomlardan biri Levitan ustaxonasida kartmani ko'radi: xuddi o'sha tungi manzara - moviy qordagi kul rang-pushti jernovli manzara. Levitan uni, razvedkachi Vays maxfiy hujjatlarni eslab qolgani kabi eslab qolgan va xotiradan chizgan.

Rassom Ayvazovskiy shunday ko'rish xotirasiga ega ediki, dengiz ko'rinishiarini o'z ustaxonasiga qamalib olib tasavvuri bo'yicha chizardi. Hikoya qilishiaricha, u Peterburgdagi bir kvartiradan ketayotib, devorda kiyim ilgich ostiga o'z po'stinini shunday chizib qo'yganki, uy egasi ijarachi po'stmini unutib qoldiribdi, degan xayolga borgan. Faqat yaqinroq kelganidagina, po'stm chizib qo'yilganini fahmlagan.

Shunday qilib, barchaning san'at va go'zallik olamini bilishl ta'limning barcha sohalarida jadal rivojlanishga olib keladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda tasviriy san'at o'qitish metodikasi asosiy predmetlardan biri hisoblanadi va o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- Talabalarga tasvirlash asoslarini o'rgatish, ya'ni badiiy ijodning psixologik asoslari bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar - qiziqish, diqqat, idrok va sezish, xotira va tasavvurni yaxshi bilishi bolalar badiiy ijodini faollashtirishda foydalanishga o'rgatish.
- Talabalarning badiiy ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, ularning badiiy didini tarbiyalash, borliqdagi va san'atdagi go'zalliklarni ko'ra bilishga o'rgatish.
- Bo'lajak o'qituvchilarni tasviriy san'at darslarini olib borishga tayyorlash va shu bilan birga mashg'ulotlarni hayot bilan bog'lab o'tishga o'rgatish.
- Sharq mumtoz san'ati, hozirgi zamon o'zbek tasviriy san'ati, sharq xalqlari va xorijiy mamlakatlar san'atlari haqida qisqacha ma'lumot berish.

Bolalarning san'at idrok etish bilimi tasviriy san'at darslarida asta - sekin kengayib boradi. Bu esa o'quvchilarning amaliy ishlarda borliqdagi va san'atdagi go'zallikni idrok etishga ongli ravishda yondoshish imkonini beradi. Darslarda tasviriy san'atning tur va janrlari haqida tez-tez suhbat o'tkazish, mashhur san'atkor va ularning yetuk asarlarini tahlil etish bolalarning badiiy didini o'stirishga, go'zallikni sevish va tushunishga yordam beradi.

Tasviriy san'at bo'yicha suhbat o'tkazish uchun maxsus soatlar ajratilmaydi. Suhbat darslari tasviriy san'at turlari tekislikni tasvirlash, plastilin bilan ishlash, dekorativ amaliy san'at bilan qo'shib o'tiladi.

Tasviriy san'atda suhbat uchun ajratilgan vaqt 15-20 minutdan oshmasligi lozim. Suhbat darslarining temasi har xil bo'lishi mumkin. Rassomlar, haykaltaroshlarning ijodlari, tasviriy san'atning tur va janrlari to'g'risida suhbatlar o'tkazilishi mumkin. Suhbatda o'quvchilar rassomlarning hayoti va ijodini, asarlarini tahlil qilishga o'rganadilar. San'at asarlarini idrok etish bo'limida o'zbekiston xalqlari hayoti va ijodini aks ettiruvchi asarlarga ko'proq vaqt ajratish maqsadga muvofiqdir. Tasviriy san'at asarlari bilan o'quvchilarini tanishtirishda, ularga yaqin va tevarak tarofdagi hayotdan olingan mavzu asosida o'tkaziladi. Bular tabiat manzarasini aks ettirgan iste'dodli o'zbek rassomlarining, O'zbekiston tabiatning manzarasi, ko'ko'par tog'lari, keng quloch yoygan yam-yashil dalalarini, qurilish inshootlarini rang-barang yorqin bo'yoqlarda ifoda etilgan asarlari orqali tanishtirish mumkin.

Dars jarayonida o'zbek tasviriy san'atini va boshqa qardosh xalqlar tasviriy san'ati bilan taqqoslash usulini qo'llab ko'rish maqsadga muvofiq. U.Tansikboev, N.Koraxon, R.Temurov, I.Xaydarov, N. Ko'ziboevlarning chizgan rasmlari bilan tanishayotganimizda rus manzarachi rassomlari I.Levitan, A.Savrasov, va I.Shishkinlarning asarlari namunasini taqqoslab ko'rsatishimiz mumkin. Suratlarini solishtirish mobaynida o'quvchilar tabiat go'zalligini xis qilishi, kishilarning qadimiy va hozirgi hayoti haqida tassavvurga ega bo'ladilar. Tasviriy san'at metodlarini ilm dargohlarida o'rgatilishini biz ilk marotaba tarixda qadimgi misrliklar faoliyatida ko'rishimiz mumkin.

Bolani tasvirlashga o'rgatishning asosiy sabablaridan biri o'qitish uslubi ieroglofik xususiyatga ega bo'lganligidir. Chunki shu yo'sinda biror bir ma'noni anglatishini faqat tasvirlar orqali amalga oshirishini talab etardi.

Qadimgi Misrda yoshlarni maktabda o'qitish tizimi juda qattiqo'llik bilan hattoki majburlash darajasida olib borilgan. Belgilangan maktab qonuniga amal qilmagan o'quvchi jazolanardi. Qadimgi manbalarda yozilishicha, maktab qonun-qoidalarga bo'ysunmagan shogird gavron bilan savalanib, so'ngra uzoq vaqt qorongi zulmatda saqlangan ekan. O'sha davr maktab qonuni quyidagilarni talab etardi : "Kundalik o'qishda faol va atrofdagilarga muloyim bo'l. Hech qachon

dangasa bo'lsa, yo'qsa kaltaklanasan!". Maktablarga rasm chizishga o'rgatish dastlab qadimgi Misrda paydo buldi. O'qitish rassom – pedagoglar tomonidan aniq ishlab chiqilgan va tasdiqlangan metod hamda qonunlar asosida olib borilgan. Shuni ta'kidlash lozimki, Misrlilar rasm chizish va uning nazariy qonunlariga asos solganlar. O'sha davr maktablarida yoshlarga ta'lim berishning aniq ishlab chiqilgan didaktik tamoyillari bo'lmagan. Yoshlarga rasm chizishni o'rgatish naturani kuzatish, tahlil etish, atrof tabiatdagi voqea va hodisalarni kuzatish orqali emas, balki oldindan ishlab chiqilgan andozalar asosida olib borilgan.

Misrlilardan farqli o'laroq Qadimgi Yunon rassomlari tasviriy san'atni o'qitish borasida ta'lim-tarbiyaga o'zgacha yondoshib, uni tubdan o'zgartirib boyitdilar. Ular yosh rassomlarni ko'proq tabiatni o'rganishga va uni ajralmas bo'laklaridan biri bo'lgan inson go'zalgini yuksak darajada tasvirlashga chaqirganlar. Ular qo'lagan metodlar rassomlarning borliqdagi xodisalarini insonning tabiat bilan chambarchas uyg'unligini kengroq bilib olishlariga yordam beradi, narsalarning shakli, konstruksiyasini elementar tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyatlarini hamda kuzatuvchanligini o'stirish imkonini beradi va tasviriy san'at darslari shu tarzda tashkil etiladi.

Maktab xar bir individual xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladigan turli yoshdagi bolalar ta'lim oladi. O'quvchilar orasida ko'rib turgan narsalarni to'g'ri tasvirlay oladigan xotira asosida qiynalmay rasm chizadiganlar bilan bir qatorda, oddiy rasmga qarab nusxa ko'chirishga ham qiynaladiganlar uchraydi. Bu borada biz ba'zi o'quvchilarining ko'rish qobiliyatlarining sustligi, rang sezmasligi kabi boshqa xollar hisobga olinadi.

O'quvchilarning psixik va fizologik xususiyatlarini hisobga olish, har bir o'quvchining imkoniyatiga moslashish degan so'z emas. Aksincha turli usul va metodlar yordamida bilimlarini har bir o'quvchiga yetkazish demakdir.

O'quvchilarning qobiliyat va xususiyatlariga qarab guruhlariga bo'lib ta'lim berish metodi maqsadlidir.

"Kuchli" biladigan o'quvchilarga "kuchsiz" bilimli o'quvchilarni biriktirib qo'yish ham yaxshi natijalar beradi. O'quvchilarning tasviriy faoliyatini

aktivlashtirishda, ayrim o'quvchilar bilan yakka tartibda munosabatda bo'lish va unga pedagogik ta'sir o'tkazish ham katta ahamiyatga ega.

Ta'limning individuallashtirish masalasi hozirgi davrda pedagog va ruxshunos olimlar va uslubchilarni qiziqtirmoqda.

Sinfdagi bolalar haqidagi dastlabki ma'lumotlarga ega bo'lgandan keyin, o'qituvchi hamma bolalarni qobiliyati va malakalariga qarab quyidagi guruxlarga bo'ladilar:

Tasviriy faoliyati yaxshi rivojlangan, kuzatuvchanligi, ijodiy tassavuri tarakkiy qilgan, rasm materiallarini o'zlashtirgan yoki tez o'zlashtira oladigan o'quvchilar.

O'quv materiallarini umumiy tushuntirishdan keyin mustaqil ishlash orkali o'zlashtiradigan o'quvchilar.

Tasavvur qilish qobiliyati, so'z va dars materialini sust o'zlashtiradigan, o'qituvchining maxsus yordamida muxtoj o'quvchilar har uchchala guruxdagi o'quvchilarga tavsiya qilinadigan topshiriqlar oldindan tayyorlanib, O'qituvchining frontal tushuntirishdan keyin hamma o'quvchilar o'z qobiliyatlariga yarasha ish bilan band bo'lishi kerak.

O'quvchilar aktivligini oshirishda o'qituvchi suxbati katta ahamiyatga ega. Suxbat har bir o'quvchining aktivligini ma'lum darajada o'stiradi. Natijada darsga aktiv qatnashadilar va xar bir savolga javob berishga intiladilar. Turli kartochka-savollar tarqatish o'quvchilarning ijodiy xayolini rivojlanishi uchun turki bo'lib xizmat qiladi, mazmunli rasm chizishda muvaffaqiyatga erishishlariga quyidagi usullar yordam berish mumkin.

Kartochka- savollar taxminan quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Sen temani yoritish uchun qanday mazmunda rasm chizmoqchisan?
2. Tasviringda asosiy o'rinni nima egallaydi?
3. Ayrim narsalarni rasmini to'g'ri chizdingmi? Teshkirib ko'r.
4. Birinchi plandagi narsalarni va figuralarni orqa plandagilar bilan taqqosla va boshqalar.

To'g'ri tuzilgan kartochka-savollar o'quvchilar bilimining mustahkamligini

o'shiradi, ularning tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

O'quvchilar bilan individual ishlashda rag'barlantirish usullarining roli ham katta. O'qituvchi o'quvchilarning vazifalarini tekshirayotganda faqat I –II gurux o'quvchilarning yutuqlarini namuna sifatida ko'rsatavermay, III gurux o'quvchilarini xatm e'tibor berishi kerak. Ulardagi ozgina bo'lsada o'sish va o'zgarishni xisobga olgan holda, ularni rag'barlantirib turish shart. Masalan: bolalar qarang Karim chizgn suratga. Oldingi ishlaridan ancha tuzuk. Karim harakat qilsa, a'lochi o'rtoqlariga tez kunda yetib olishi mumkin ekan. Bugun men unga "4" bal qo'yaman. Agar bundan ham yaxshiroq chizib qolsa, u ham o'rtoqlariga o'xshab "5" baho oladi. O'qituvchining bu so'zlari karimni albatta "5" bahoga olishga undaydi. O'quvchilarning aktivligini oshiradi.

O'quvchilar bilan individual ishlashning ahamiyati katta. Bu usul yordamida qoloqlarsiz o'qitish darajasiga yetish mumkin. Tasviriy san'at o'qitish xonalari yorug' bo'lishi kerak. Yorug'lik normal bo'lmagan joyda ko'rish sezgilariga zo'r berish zararlidir.

Ba'zi bir xil o'quvchilarda yaxshi eshitmaslik, uzoqdagini ko'ra olmaslik kabi kasalliklar uchraydi. Odatda bu xil o'quvchilar o'qituvchining e'tiborda bo'lishi va oldingi partalarda o'tirgani ma'qulroqdir.

Ko'z har xil uzunlikdagi yorug'liq tulqinlarini bir xilda sezmaydi. Ko'z sariq va havo rangni sezishga moyilroq bo'ladi. Ba'zan xromatik ranglarni mutloqa sezmaslik hollari ham uchrab turadi.

Bunday kishining ko'ziga barcha buyumlar qoramtir rangga bo'yalgandek ko'rinadi. Ko'pincha ayrim ranglarni qizil va yashil rangni sezmaslik holati uchrashi mumkin, bu daltonizm deyiladi.

Daltonizm ko'rishidagi eng muhim kamchilik hisoblanadi. Bunday o'quvchilarning kasb tanlashda o'qituvchi alohida e'tibor bermog'i zarur, chunki daltonizmga uchraganlar, shofer, mashinist va uchuvchilik qila olmaydi, rassom bo'la olmaydi.

III bob."Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish".

3.1§. Maktabda tasviriy san`atni o`qitishning nazariy va metodik asoslari.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1999 yil 16-avgust qaroriga ko`ra 1999-2000 o`quv yilidan boshlab umuman o`rta ta`lim maktablarida barcha fanlar qatori tasviriy san`at ta`lim bo`yicha ham davlat ta`lim standartlari joriy etildi. Davlat ta`lim standartlarini ishlab chiqilishi avallo O`zbekistonning mustaqilligi, uning jahon hamjamiyatiga faol kirib borayotganligi bilan bog`landi.

Hozirda har bir fan bo`yicha, shu qatori badiiy-estetik turkumdagi fanlardan davlat ta`lim standartlarining yaratilishi, uni hukumat tomonidan tasdiqlanishi katta ilmiy va ahamiyatga ega bo`lgan voqeadir. Mazkur standartlar O`zbekiston tarixida birinchi bor yaratilishi bo`lib, u respublikamiz maktablarida ta`limni yuqori ilmiy-metodik asosda tashkil etish hamda uni jahon standartlari darajasiga olib chiqishga sharoit yaratadi.

Standart tomonidan qo`yilgan talablarni to`g`ri va benuqson bajarish uchun imkon berishi bilan bir qatorda, amaliyotda qo`llanib kelayotgan dastur, darslik va metodik qo`llanmalardagi kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish imkonini ham beradi. Shuningdek, u maktablarda ta`lim ishlarini nazorat qiluvchi tashkilotlar uchun ham asosiy hujjat vasifasini o`taydi.

Davlat standartiga ko`ra tasviriy san`at ta`limi mazmuni boshlang`ich sinflarda quyidagi to`rt yo`nalishda bayon etilgan:

1. Borliqni idrok etish.
2. Badiiy qurish- yasash.
3. Naturaga qarab tasvirlash.
4. Kompazitsion faoliyat.

Beshinchi – ettinchi sinflarda esa u quyidagi uch yo`nalishda o`z aksimi topgan:

1. San`atshunoslik asoslari.
2. Naturaga qarab tasvirlash.
3. Kompazitsion faoliyat.

Mazkur yo`nalishlar bo`yicha tasviriy san`at o`quv predmetini o`qitishda har

bir o`qituvchi asosiy e`tiborni nimalarga qaratilishini bilib olishi kerak bo`ladi. Tasviriy san`atni o`qitishda o`qituvchining e`tibor berishi lozim bo`lgan asosiy jihatlar quyidagilardan iborat :

1. O`quvchilarni borliqdagi (tevarak-atrofdagi) va san`at asarlaridagi nafosatni ko`rishga, idrok etishga va undan zavqlanishga hamda qadrlashni o`rgatish :

2. Bolalarni ijobiy, abstrakt, mantiqiy fikrlashga, ayniqsa ijodiy qobiliyatlari va fantaziyalarini o`stirishga yo`naltirish :

3. Tasviriy, amaliy, me`morchilik san`atlari yuzasidan nazariy, biroq umumiy, elementlar bilimlar berish.

4. O`quvchilarga kuzatuvchanlik, ko`z xotirasi, chamalash, fazoviy tasavvur kabi shaxs uchun muhim bo`lgan sifatlarni o`stirish.

5. Rasm va naqsh, haykal ishlash yuzasidan tasviriy malakalarini o`stirish.

6. Estetik his-hayajonni tarbiyalash va rivojlantirish.

7. San`atga qiziqishini o`stirish va muhabbatni tarbiyalash.

Bu vazifalar maktabda tasviriy san`at darsini olib boruvchi har bir o`qituvchini mutaxassis bo`lishligini talab etadi. Chunki standart mazmuni, mutaxassis o`qituvchilar uchun mo`ljallab tuzilgan.

Tasviriy san`at ta`limi davlat standarti san`atning uch turi; tasviriy, amaliy va me`morchilik san`atlari mazmunini aks ettirgan bo`lib, u avvalo milliy o`zbek san`atini, uning badiiy ananalarini, ayrim mashhur o`zbek tasviriy, amaliy me`morchilik san`atlari ustalarining hayoti va ijodini, O`zbekistonda san`atning bu turi rivij topgan markazlarni, O`zbekistondagi yirik san`at muzeylarini bilish tasviriy san`at o`quv predmetini vazifalaridan biri ekanligini qayd qiladi. Bundan maqsad milliy san`at vositasida o`quvchilarga badiiy ta`lim berish bilan bir qatorda ularda shaxsni estetik, axloqiy va mehnat tarbiyasini amalga oshirishdan iboratdir. Milliy o`zbek san`atini chet elva jahonning hozirgi zamon ilg`or san`atiga qaraganda kehgrog va chuqurroq o`rgatishdan maqsad har bir o`zbek o`quvchisi o`z xalqining tarixini, adabiyotini bilishi shart ekanligi kabi, uning san`atini ham nisbatan kengroq bilishga erishishdir. Milliy san`at ta`lim mazmunining poydevori bo`lishi lozim.

Ularni o`rganmasdan turib, yoshlarimiz badiiy madaniyatli shaxs bo`la olmaydi. Aks holda milliy qobiqqa o`ralashib qolish oqibatida ular jahon standartlari darajasiga chiqa olmaydilar. Ayniqsa yoshlarimiz qadimgi Misr, Yunoniston, Hindiston me`morchiligi, Afg`oniston, Iroq, Turkiya miniatyura rangtasvir asarlari, Evropada Uyg`onish davri tasviriy san`ati, rivojlangan G`arb mamlakatlarning hozirgi zamon tasviriy va me`morchilik san`ati namunalarini o`rganmasdan turib madaniylashgan shaxs bo`lishi mumkin emas.

Davlat ta`lim standartlari talablarini faqat o`quv rejalarida ajratilgan vaqt hajmida muvofaqiyatli bajarib bo`lmaydi.

Chunki yuqorida qayd qilinganidek, ta`lim mazmuniga doir o`quv-metodik majmualar, moddiy texnikaviy asos, yuqori malakali o`qituvchilarning etishmasligi, mavjud muammoni birmuncha murakkablashtiradi. Bu esa o`quvchilarni darsdan va maktabdan tashqari mustaqil ishlarini tashkil etishni samarali shakllari va yo`llarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Mazkur muammo bevosita o`quvchilarning mustaqil ishlari uchun tegishli adabiyotlar, xrestomatik materiallar, moddiy- texnikaviy materiallar, o`quv va metodik yo`l-yo`riqlarni ishlab chiqish bilan bog`langan. Hatto, bu masalada ota-onalarning vazifalari, ish mazmuni haqida o`ylab ko`rish, ularga ma`lum yo`l-yo`riq va tavsiyalar berish foydadan holi emas.

Ma`lumki, bolalarning ta`lim standartlari asosida olgan bilim va malakalarini qanday o`zlashtirganlik darajasini ham tekshirib boriladi. Bu esa standartni sinflar bo`yicha ishlab chiqish lozimligini taqazo etadi.

Davlat ta`lim standartlarida tasviriy san`at ta`limi mazmuniga bo`lgan majburiy minimum talablar bayon etilgan. O`qituvchi uni bajarishi shart. Lekin o`qituvchi bu bilan chegaralanib qolmasdan uni chuqurlashtirishga harakat qilishi lozim. Biroq ta`lim mazmunini yuqori darajada olib chiqaman deb bolalarga keragidan ortiq talablar qo`yish, ularni qiynash ham mumkin emas. Shuni ham yoddan chiqarmaslik kerakki, maktablarimiz nomi umumiy o`rta ta`lim maktab deb ataladi. Demak maktablarimizda umumiy, elementlar bilim va malakalar berilishi lozim.

Davlat ta'lim standartlari bo'yicha ettinchi sinfni bitiruvchi o'quvchilar quyidagilarni bilishlari lozim:

Tasviriy san'at yuzasidan;

- rassomlarning asosiy ish qurollari va ishlatadigan materiallarini – molbert, etyudnik, xolst, mo'yqalam, mastexin, bo'yoqlar, (yog'li,akvarel, gyash, v.b.) pastel, sous, ugot, sangina v.b;

- haykaltaroshlarning asosiy ish qurollari va ishlatadigan materiallarini – dastgoh, bolg'a, stek, loy, tosh, yog'och, v.b;

- haykaltaroshlikda ishlatiladigan ayrim atamalarni- dastgohli haykaltaroshlik, monumental haykaltaroshlik, plastik haykaltaroshlik, istirohat-bog' haykaltaroshligi, real haykaltaroshlik, dekarativ haykaltaroshlik, rel'ef, gorel'ef, barel'ef;

- grafikachi rassomlarning asosiy ish qurollari va ishlatadigan materiallarini ; rangtasvirida ishlatiladigan atamalarni (natura, fon, perspektiva, chiziqli perspektiva, rang perspektivasi, havo perspektivasi, ufq chizig'i) eskiz, yorug' soua, blik, refleks, shaxsiy soya, tushyvchi soya, janr, kompazitsiya, reproduksiya, avtoportret, frezka, mozaika, vitraj, dastgohli rangtasvir, minatyura rangtasviri, monumental rangtasviri, dekarativ rangtasvir, qoralama, ranglama, etyud, original, slayd, kolorit, gamma, mumtoz san'at;

- ishlatiladigan asosiy atamalarni gravyura, limogravyura, litografiya, ksilografiya, estamp, gazeta jurnal grafikasi, karikatura, plakat, zarhal harf, bosh bezak, yakuniy bezak zarvaraq, ilyusrtatsya, etiketka, upakovka;

- O'zbekiston hududidan topilgan eng qadimgi rangtasvir va haykaltaroshlik namunalarini;

- O'zbekistonning hozirgi zamon tasviriy san'atini;

- Tasviriy san'atining janrlarini- manzara, turmush, natyurmort, tarixiy, batal, portret, afsonaviy, animal, marina;

- rang nomlarini – bargikaram, gulnor, nilgun, siybob, malla, sadaf, lojuvard, shingob, novvoti, axmar, to'tiyoy, firuza, novshadil, to'tigiy, nilobi, tilla hal, kumush xil;

- O'zbekiston va jahonning dunyoga mashhur 5-6 rassomning hayiti va ijodini;

- rangtasvir, haykaltaroshlikda, grafikada ijod qiluvchi 50-60 rassom, haykaltarosh, grafiklarning ismi va familiyasi hamda ularning asarlarini ;
- tasviriy san`atdagi asosiy oqimlarini;
- Sharq miniatyura rangtasviri maktablarini ;
- Movaraunnahr miniatyura rangtasviri maktablarini ;
- O`zbekiston va jahonning mashhur tasviriy san`at muzeylarini .

Amaliy-bezak san`ati yuzasidan :

Amaliy-bezak san`ati ustalarining ish qurollari va ularning ishlatadigan materiallarini ;

- amaliy-bezak san`atida ishlatiladigan ayrim atamalarni – naqqoshlik, ganchkorlik, yog`och o`makorligi, misgarlik, kashtachilik, sopolsozlik, zardo`zlik, ko`p-barg, chinnigul, gullola, bodomgul, marg`ula, gulsafsar, qo`shband, stilizatsiya, islamiy, girix, guligirix, nomoyon, ochiq naqshlar, cheksiz naqshlar ;
- amaliy bezak san`atida ijod qiluvchi mashhur 10-15 ustalarning familiyalari va ismlari;
- Jahondagi mashhur 3-4 amaliy san`at ustasining hayoti va ijodini ;
- O`zbekistonda xalq amaliy bezak san`ati rivoj topgan markazlarni ; Toshkentdagi, O`zbekiston xalq amaliy san`ati muzeyini.

Me`morchilik san`ati yuzasidan :

- me`morchilikda ishlatiladigan asosiy ish qurollari va materiallarni ;
- me`morchilikda ishlatiladigan ayrim atamalarni – memor, jome, minora, rovoq, mezana, ark, gumbaz, maket, muqarnas, navo, koshin, maqbara, mexrob, peshtoq, poydevor, vassa (toqi), poyustun, exrom, order, gotika, romantizm, barakko, klasitsizm, renesans, registon, interer, eksterer ;
- O`zbekiston hududidan topilgan eng qadimgi me`morchilik obidalarini – Afrosiob, Varaxsha, Bolalik tepa, Tuproqqal`a v.b.;
- O`zbekistonning IX-XIX asr va hozirgi zamon mashhur me`morchiligini;
- Jahonning qadimgi va hozirgi zamon mashhur me`morchiligini ;
- Jahondagi mashhur 2-3 me`morning hayoti va ijodini ;

Tasviriy san`at darslarining eng muhim vazifalaridan yana biri, tasviriy, amaliy va me`morchilik san`atlari asarlarini o`qishga o`rgatishdir. Tasviriy san`at asarlari ertak, hikoya, doston, roman kabi ma`lum bir mazmunni aks ettiradi. Biroq uni kitob o`qigandek o`qib bo`lmaydi. Tasviriy san`at asarlarini o`ziga xos tili bor. Ularni bilgan kishilargina o`qiy oladilar. Xususan rassomlar, chiziqlar, ranglar, o`lchovlar, kompazitsiya, proporsiya, ritm, simmetriya shakl kabi ifodalilik vositalari yordamida asar mazmunini ochib beradilar.

Umumiy o`rta ta`lim maktablarida tasviriy san`at o`quv predmetining maqsad vazifalaridan kelib chiqqan va ta`limning davlat standartlariga asoslangan holda ta`lim mazmuni aniqlanadi. Tasviriy san`at dasturida uning quyidagi besh turi belgilangan :

1. Borliqni idrok etish (1-4 sinflarda)
2. Badiiy qurish – yasash (1-4 sinflarda).
3. San`atshunoslik asoslari (5-7 sinflarda)
4. Naturaga qarab tasvirlash (1-7 sinflarda)
5. Kompazitsion faoliyat (1-7 sinflarda).

Borliqni idrok etish

O`quvchilarning estetik idroki, didi, mazkur sohaga doir tushunchalari, tasavvur va xotiralarni o`stirishda muhim rol` o`ynaydi. Borliqni idrok etish mashg`ulotlari odatda mavzuli kompazitsiyalarni bajarishdan oldin o`tkazilib, unda tabiatdagi va tevarak- atrofdaagi nafislik va go`zallikni ko`ra bilish, idrok etish natijasida olingan tassurotlardan amaliy, badiiy-ijodiy faoliyatlarida foydalanish nazarda tutiladi. Shuningdek, tabiatga qilingan sahyohat jara-yonida, zarur hollarda ayrim ob`ekt va hodisalarni qalam, bo`yoq va boshqa badiiy materiallar yordamida xomaki rasmlari ham ishlanadi.

Bunday darslarda bolalar sinf va sinfdan tashqari o`simliklar, qushlar, baliqlarni kuzatadilar, tabiatning turli fasllardagi ko`rinishlari, kayfiyati (quvonchli, g`amgin, o`ychan va hokazo) haqida tasavvurga ega bo`ladilar. Boshlang`ich sinflarda borliqni kuzatish va ular haqida suhbatlar o`tkazish, o`quvchilarga hayotdagi ba`zi bir hodisalarni, kengroq bilib olishga yordam beradi. U narsalarning shakli, tuzilishi, rangi kabilarni ma`lum miqdorda

tahlil qilish va umumlashtirishdek muhim sifatlarni o`stirishga ham imkon beradi.

Tabiat va borliqni kuzatish jarayonida bolalarni uni sevimli, asrab-avaylash ga o`rgatiladi. Tabiatga qilingan sayohatlarda ularning ayrim jihatlari fasillarga bog`liq bog`liq holda o`zgarib turishligi bolalarga tushintiriladi. Shuningdek, bunda bolalarni fazoviy tasavvurlari ham o`stiriladi va planlik, chiziqli va havo havo perspektivasiga ham e`tibor beriladi. Borliqni kuzatish bevosita tasviriy ijodiy faoliyat bilan bog`liq ekanligi, borliqni bilmasdan turi sifatli tasviiy ishlarni bajarish mumkin emasligi bolalar ongiga etkaziladi.

Borliqni idrok etish mashg`ulotlarini vazifalariga rioya qilgan holda quyidagi mazmunda mashg`ulotlar o`tkazish nazarda tutiladi:

- 1.Kuz, Qish, Bahor fasillarida tabiatni o`ziga xos xususiyatlarini o`rganish;
- 2.Gullar, Hasharotlar, Dekarativ baliq va qushlarni kuzatish;
- 3.Tabiat mo`jizalari, bahorgi va kuzgi ishlar bilan tanishish vakazolar.

Yuqorida qayd qilinganidek, bunday mashg`ulotlardan maqsad, borliqni bilishi, undagi narsa va hodisalarni, o`ziga xos xususiyatlarini, ayniqsa, tuzulishi, rangi, o`lchovlari, o`lchov nisbatlari, fazoviy holatlari, ularni yil fasillariga qarab o`zgarishlarini anglab etishlariga erishishdan iboratdir. O`zgarish zarur bo`lgan ob`ektlarni naturadan kuzatishning imkoni bo`lmagan taqdirda o`qituvchi darsda bolalarni san`at asarlarining reproduksiyalari, slaydlari, foto nusxalarini namoish etish orqali o`z maqsadiga erishadi.

Boshlang`ich sinf tasviriy san`at darslarida o`quvchilarning qiziqishlari va ijodkorligini oshirish va rassomchilikda ishlatiladigan turli materiallar bilan kengroq tanishtirish maqsadida **badiiy qurish-yasash** ishlari ham olib boriladi.

Tasviriy faoliyatning bu qiziqarli turi uchun dasturda alohida soatlar ajratilgan bo`lib, ular mashg`ulotlar mazmunini yanada boyitadi. Qurish-yasash uchun asosan uch xil materiallardan fodalanish nazarda tutiladi;

1. Badiiy materiallar (rangli qog`ozlar, falga, gulqog`ozlar, plastilin, loy va bosh.r).

2. Tabiiy materiallar (daraxt barglari, shoxlari, ildizlari, po`stlog`lari, meva va sabzavotlarning urug`lari, rangli toshchalar, bug`doy va arpa poyalari v.b.)

3. Tashlandiq materiallar (ichimlik va dori-darmondan bo`shagan sintetik idishlar, gigurt qutichalar, po`kak, penoplast, idish qopqoqlari v. b.)

Badiiy qurish-yasash mashg`ulotlarida bolalarni qaychi bilan ishlash, kley yordamida elimlash, qog`ozlarni narsalar shakliga mos holda buklash, o`rash, ayrim badiiy tashlandiq va tabiiy materiallarni bir-birlariga qo`shish orqali tasvir yaratish kabi malakalar hosil qilinadi. Bu malakalarni hosil qilish boshlang`ich sinflar dasturida bir qator topshiriqlarni bajarishni nazarda tutadi. Ular quyidagilardan iborat:

- turli shakldagi qalamdon, quticha, havo shari, bayroqcha, choynak, lagan, mashina, samaliyot, raketa vashu kabi narsalarni rangli qog`oz va kartondan tasvirini yasash;

- hasharotlar–tilla, qo`ng`iz, ninachi, kapalak va boshqalarni, rangli qog`ozlarni qirqish orqali hosil qilish;

- rangli qog`ozlarni qirqish, buklash va elimlash yo`li bilan osma o`yinchoqlar tayyorlash;

- tabiiy materiallar yordamida baliq, hasharot, qush, hayvonlarning tasvirlarini hosil qilish;

- rangli qog`oz, badiiy va tashlandiq materiallardan aplikatsiya, kollaj, pap`e-mash`e, aralash usulda mazmunli kopazitsiyalar (masalan, “ Ko`chada”, “Kosmodromda”,) ishlash;

- tashlandiq materiallar sim, ip, kanop, gazlama parchalari, plasmas idishlar, gugurt qutichalari, po`kak, penoplast, idish qopqoqlari yordamida uncha murakkab bo`lmagan transport (qayiqcha, pir-pirak, mashina, traktor v.b.), qushlar (qaldirg`och, to`ti g`oz, chumchuq, laylak, o`rdak, sa`va v.b.), hay- vonlar (tulki, bo`ri, quyon, ayiq, yo`lbars, it, sher v.b.) ning o`yinchoq tasvirlarini ishlash;

- quritilgan barglar, rangli qog`ozlar, shoxlar yordamida ochilgan gul, gullagan daraxt shoxchasi tasvirini tayyorlash v. b.

Badiiy qurish-yasash ishlarida eng muhim vazifalardan biri badiiy, tashlandiq materiallarning o`ziga xos jihatlarini (qattiq, yumshoq, mo`rt, egiluvchan, og`ir, engil, och, to`q v.b.) bilish hamda ular bilan ishlaganda o`lchov va o`lchov nisbatlarini, tuzilishi, shakli ranglarini to`ri belgilash talab etiladi.

Shuningdek qurish-yasash ishlarida qo`llanadigan o`quv qurollari va materiallarini bilish, tabiiy, badiiy, tashlandiq materiallarini bir-birlaridan farqlay olish ham talab etiladi.

Narsalar shaklini ko`ra olish han badiiy faoliyatining bu turi vazifasiga kiradi. Bunday ishlarni bajarganda ish joyini ozoda batartib tutabilishga ham o`rgatiladi.

San`atshunoslik asoslari bo`limi o`quv predmetining muhim qismlaridan biridir. U dasturda 5–7 sinflarda mustaqqil bo`lim sifatida o`zining o`quv vazifalari tizimiga ega va u tasviriy, amaliy–bezak, me`morchilik san`atlari materiallaridan tashkil topadi. Mazkur bolimning maqsadi o`quvchilar tomonidan san`at asarlarini ongli idrok etish va baholash uning jamiyat va odamlar hayotidagi ahamiyatini tushinishga yordam berishdan iborat.

San`atshunoslik asoslari bo`limi o`quvchi shaxsining estetik rivojiga ko`maklashib, uni jahon madaniyatining buyuk durdonalari va san`at asarlari orqali tevarak-atrofdagi hayot go`zalliklari bilan tanishtiradi, badiiy didini shakllantiradi, san`atni sevishga o`rgatadi.

O`quvchilar bilan san`atshunoslik asoslari bo`yicha o`tkaziladigan mashg`ulotlarda ular mumtoz madaniy meros bilan tanishtirib boriladi, uning buyuk ananalari va san`atning xalq uchun xizmat qilishi, san`atdagi turli oqimlar va yo`nalishlar to`g`risida tushinchalar hosil qilinadi.

Tasviriy amaliy san`at asarlarini idrok etishga oid o`quv materiallar o`quvchilarning amaliy ishlari bilan bog`langadir. San`at asarlarining nusxalarini bolalarga ko`rsatish va ularning tahlili o`quvchilarda san`atga qiziqish uyg`otadi va ularni shu sohaga yo`llaydi. Asarlarni namoish etishda bolalar unda ifodalangan g`oya, asosiy fikr va qo`llanilgan badiiy-tasviriy vositalar bilan tanishtiriladi.

Dekorativ-amaliy san`atga doir san`atshunoslik asoslari darslarida, amaliy-bezak san`ati, xalq amaliy-bezak san`ati, o`zbek xalq amaliy-bezak san`ati, liboslar, o`zbek va chet el xalqlarining milliy liboslari haqida bilimlar berish, xalq ustalari ishlatadigan ish qurollari va materiallari bilan tanishtirish nazarda tutiladi. Bunday darslarda Toshkentdai xalq amaliy san`ati muzeyi va Respublikamizdagi xalq maliy san`atining mashhur namoyondalari hisoblangan Usta Shirin Murodov, Ota Polvonov, Hamro Raximova kabilar haqida ham suhbatlar o`tkazish rejalashtiriilgan.

Me`morchilik san`ati borasida esa me`morchilik san`ati va uni atrof-muhit bilan bog`liqligi, me`morchilikda go`zallik, maqsadga muvofiqlik haqida tushunchalar berish, individual va ijtimoiy me`morchilik, ularning turlari bilan tanishtirish, binolarning vazifasi va ularning estetik yechimining o`zaro bog`liqligi, fasad va inter`erdagi dekorativ bezaklarning xarakteri, me`morchilikda qo`llaniladigan asosiy atamalar haqida fikr yuritiladi. Binolarning tashqi va ichki badiiy bezaklarining xarakteri, ularda ishlatiladigan materiallar bilan ham tanishtiriladi.

Tasviriy san`atdan davlat ta`lim standartlarida qayd qilinganidek, bolalarga san`atshunoslik asoslari quyidagilar haqida bilimlar berishni nazarda tutadi:

1. Tasviriy san`at - san`atning bir turi ekanligi va uning kishilar hayotidagi o`rni va ahamiyati. O`zbekiston hududida tasviriy san`atning taraqqiyoti (Afrosiyob, Varaxsha, Tuproq qal`a v.b. joylardan topilgan tasviriy san`at namunalari). Tasviriy san`atning turlari (rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik) va janrlari (manzara, turmush, natyurmort, portret, tarixiy, batal, animal, afsonaviy, marina). Rangtasvir turlari-dastgohli rangtasvir, monumental rangtasvir, miniatyura rangtasviri. Rangtasvir texnikasi-freska, mozaika, vitraj.

2. Haykaltaroshlik turlari-dastgohli haykaltaroshlik, dekorativ haykaltaroshlik, monumental haykaltatoshlik; Rel`ef (barel`ef, gorel`ef); yumaloq haykallar

3. Grafika turlari-dastgohli grafika, estamp, plakat, kitob grafikasi; gazeta- jurnal grafikasi; targ`ibot va tashviqot grafikasi; etiketka, upakovka, v.b.

4. Movarounnahr minatyura maktabi; Sharq minatyura maktablari; Yevropada Uyg`onish davri tasviriy san`ati; Jahonning hozirgi zamon ilg`or tasviriy san`ati; jahon tasviriy san`atidagi asosiy oqimlari; dunyoning eng yirik tasviriy san`at muzeylari; O`zbekistonning eng yirik tasviriy san`at muzeyi. Jahonga mashur eng buyuk rassomlarning hayoti va ijodi (Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, O`rol Tansiqboyev, Chingiz Axmarov v.b.).

Naturaga qarab rasm ishlash mashg`ulotlari narsalarning tuzilishi, shakli, rangi, o`lchovlari, ularning xarakterli, tipik belgilarini bilish imkonini beradi. Shu orqali bolalarda kuzatuvchanlik, xotira, estetik did, obrazli tafakkur kabi eng muhim tasviriy malakalar shakllantiriladi va rivonjlantiriladi. Ular tik, yotiq, og`ma, egri, to`lqinsimon chiziqlarni chizish, bo`yoqlar bilan tegishli yuzani bir me`yorda bo`yash, och tusdan to`q tusga va aksincha to`qdan ochga o`tish, o`quvchilar to`g`ri va egri chiziqlarni teng bo`laklarga bo`lish malakalarini o`zlashtiradilar. Chizilayotgan rasm mazmunidan kelib chiqqan holda qog`oz farmatini to`g`ri tanlashni hamda rasmni qog`ozda kompazitsion jihatdan to`g`ri joylashtirishni o`rganadilar. Shuningdek, rasmni bosqichlar asosida ishlashni o`zlashtiradilar.

Naturaga qarab rasm ishlash mashg`ulotlarida o`quvchilar, mo`yqalam, rangli qalamlar, akvarel, guash bo`yoqlari bilan ishlash yo`llarini o`rganadilar, imkoni bor joylarda ko`mir (ugol), sous, pastel, sangina kabi materiallar bilan ham ish olib boradilar.

Tasvirlash jarayonida naturani tahlil qilish, ularning qismlarini bir-biri bilan taqqoslash, umumlashtirish kabilar rasm ishlovchining e`tibor markazida bo`ladi. Bunda ayniqsa, chiziqlar ravonligi, ranglarning nafis va mutanosibligi, ifodalangan go`zalikni zehnlab tasvirley olishga alohida e`tibor beriladi.

Boshlang`ich sinflarda ko`proq bolalarning tasviriy imkoniyatlariga moskeladigan bayroqcha, soat, havo shari, o`yinchoq mashinalar, ninachi, kapalak, tilla qo`ng`iz kabi hasharotlarni rasmini ishlash nihoyatda qo`l keladi. Bunday mashg`ulotlar uchun natura tanlashda o`qituvchi, ularning estetik ko`rinishiga, shakl, rang jihatidan bolalarda qiziqish uyg`otadigan bo`lishligiga o`z e`tiborini qaratadi.

Kompazitsion faoliyato`zmazmuniga ko`ra uch qismga bo`linadi:

1.Rangtasvir kompazitsiyasi. 2. Dekarativ kompazitsiya. 3. Haykaltaroshlik kompazitsiyasi.

Kompazitsion faoliyat o`quvchilarda badiiy-ijodiy qobiliyatni,o`z fikr va taassyrotlarni rasmda obrazli qilib tasvirlash hamda badiiy didni o`stirishni maqsad qilib qo`ydi.

Rangtasvir kompazitsiyasi mashg`ulotlari tevarak-atrofdan olingan ko`rinish va hodisalarni uning barcha janrlarida (manzara, turmush, natyurmort, tarixiy, animalistik, afsonaviy, marina) amaliy ishlar shaklida bajarishni nazarda tutadi. Bu amaliy ishlar bevosita yorug` soya, rangshunoslik, perspektiva yuzasidan olib boriladigan nazariy bilimlar bilan bog`liq holda analga oshiriladi. Bunday amaliy mashg`yotlarda bolalar naturani kuzatish, (qoralama, ranglama, uzoq davom etadigan rasm ishlash) xotiradan, tasviriy san`at asarlaridan olgan bilim va malakalarga tayangan holda ish olib boradilar. O`quvchilar tanlangan mavzuga ko`ra uning elementlarini qog`oz yuzasida

bir-biriga bog`liq holda joylashtirish, yaxlit rangtasvir kompazitsiyani hosil qilish, mavzu mazmuniga mos keladigan rangtasvir kompazitsiyasni topish uchun bir xil xomaki ishlar, eskizlar ishlaydilar. Kompazitsiya tuzishda bolalar obrazlarning tipik belgilarini tanlab olib, qismlarning o`rnini almash-tirib, qo`shimcha detallar kiritish orqali kompazitsiya mazmunini boyitish kabilarga alohida e`tibor beradilar. Unda kompazitsiyaning bir butunligi, qismlarni, shakllarni, ranglarni xillashtirish va ular o`rtasidagi bog`lanish va kontrastlik, asardagi hamma vositalarning bosh g`oyaga bo`ysindirish kabi qonun qoidalar hisobga olinadi.

Rangtasvir kompazitsiyasi darslarida o`quvchilar bo`yoqlar bilan tasvirlash, tasvirda asosiy bo`rtirib ko`rsatish, tasvirda uzoq-yaqinlikni ifodalashda perspektiva qoidalariga amal qilishni o`rganadilar.

Dekorativ kompazitsiya mashg`ulotlarida badiiy-bezak ishlarida foydalaniladigan uo`lsimon, kvadrat, to`rt burchak, doira naqshlar, ochiq va yopiq naqshlar, namoyon naqsh namunalaridan ko`chirish va mustaqil ijodiy ishlarni o`rganadilar. Bu ishlar bevosita buyum bezagi bilan bog`liq holda amalga oshiriladi.

Shuningdek, taklifnoma, tabriknomalar tayyorlash kabi amaliy ishlar ham bajariladi. Milliy va chet el xalqlarining liboslari uchun eskizlar tayyorlanadi, tabiiy shakllarni stilizatsiyalash yuzasidan mustaqil ishlar olib boriladi. Dekorativ kompazitsiya mashg`ulotlarida xalq ertaklari, hikoyalar, dostonlar, she`rlar mazmuniga eskizlar ishlash katta o`rinni egallaydi. Bunda bolalar kitoblarini ichki va tashqi (muqova) bezagiga doir (bosh bezak, yakuniy bezak, zarhal harf, illyustratsiya) ishlarni bajaradilar. Dekarativ ish-larda o`quvchilar buyumlarning vazifalari, ularning shakli, bezak element-larining o`zaro bog`liqligi haqida elementar tushunchalriga ega bo`ladilar, hamda yuksak mahorat bilan tasvirlangan narsalarni didsiz, pala-partish ishla-gan narsalardan farq qilishini o`rganadilar.

Dekorativ kompazitsiya darslarida bolalarga har qanday naqshlarning elementlari tevarak-atrofdagi narsa va hodisalardan olingan haqida tushuncha

beriladi. Binobarin, naqsh ishlash mashg`ulotlarida rasm ishlovchi real shaklni o`zlashtirishi, uni soddalashtirishi, unga yangi elementlarni qo`shishi mumkinligini o`rganib oladi.

Haykaltaroshlik kompazitsiyasi mashg`ulotlarida odam, hayvon, qushlarning alahida haykallari, sport, hayvonot olami mavzularida, xalq ertaklari asosida tasviriy ijodiy ishlar bajariladi. Dekarativ haykaltaroshlik oquvchilarga turli dekarativ bezakli rel`eflar va o`yinchoq haykallar ishlash orqali maxsus bilim hamda malakalar hosil qiladi. O`zbek xalq kulolchilik san`ati an`analari asosida “Toychoq”, “Qo`zichoq”, “Bo`taloq” kabi o`yinchoq haykalchalar ishlanadi. Fantastik mavzularda, dev, ajdarho, kentavr, suv parisi, xumo qushi kabilarni dekarativ haykallari ijodiy tarzda bajariladi. Bunday mashg`ulotlarda bolalar stek bilan ishlash, loy yoki plastilinni dumaloqlash, bosib yapaloqlash, silliqdash, cho`zish usullarini o`rganadilar.

Haykaltaroshlik mashg`ulotlarida ikki xil ish uslubi mavjud bo`lib:

1. alohida-alohida loy yoki plastilin bo`laklarini bir-biriga yopishtirish orqali haykal ishlash bo`lsa;

2. yaxlit loy bo`lagiga stek bilan ishlov berish orqali haykal ishlashdir;

Bularni bolalar yakka yiki gruh bo`lib bajaradilar. Kompazitsiyalardagi obrazlar soniga qarab, guruhdagi bolalar soni kam yoki ko`p bo`lishi mumkin.

3.2§ Dars ishlanma.

Sinf: 5

Fan: Tasviriy san'at

Mavzu: Tabiat manzarasi fonida natyurmort ishlash

Darsning texnologik xaritasi

Maqsadi	O`quvchilarda chizmachilik faniga qiziqish uyg`otiladi, o`quvchilar mavzu bo`yicha o`zlashtirilishi lozim bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalarga ega bo`ladilar, mavzuning mazmun-mohiyatini o`zlashtiradilar. Mavzuga oid topshiriqlarni yakka va guruh holatida o`rganib, o`zlashtirishga erishadilar. O`quvchilarning yangi mavzuni qay darajada o`zlashtirganligi nazorat qilinadi, ularning bilimi baholanadi.
O`quv jarayonining mazmuni	<p>Ta'limiy: O`quvchilarda ko`rinishlar, bosh va asosiy ko`rinishlar haqida bilim, ko`nikma va malakalarini hosil qilish.</p> <p>Tarbiyaviy: O`quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash va ularda estetik zavq o`yg`otish.</p> <p>Rivojlantiruvchi: O`quvchilarning o`z ustida mustaqil ishlash ko`nikmalarini shakllantirish.</p>
O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<p>Shakl: interfaol mashg`ulot: savol-javob, jamoa bo`lib ishlash.</p> <p>Metod: Aqliy hujum, og`zaki savol-javob, tushuntirish, test, qiziqarli rasm topshiriqlari bilan ishlash,</p> <p>Vosita: Mustaqil ishlarning tarqatma materiallari, kitoblar, chizma qog`ozi, rangli qog`oz va marker, flomasterlar.</p> <p>Usul: amaliy mashqlar.</p> <p>Nazorat: kuzatish, nazorat savollari, nazorat mashqlari.</p> <p>Baholash: rag`batlantirish, o`z-o`zini baholash, ball tizimi.</p>
Kutiladigan natijalar	O`quvchilarning kompyuter imkoniyatlari to`g`risidagi bilim va ko`nikmalari rivojlanadi. Ertak haqidagi tushunchalari kengayadi. Yangi bilim va ko`nikmaga ega bo`ladi. Yakka holda va guruh bo`lib ishlashni o`rganadi.
Kelgusi rejalar (tahlil, o`zgarishlar)	<p>O`qituvchi: Navbatdagi mavzu uchun mashg`ulot materiallarini qaytadan ko`rib chiqish, mashg`ulotni tahlil qilish, mavzuni qo`shimcha ma`lumotlar bilan boyitish, mashg`ulot metodikasi va texnikasiga o`zgartirish kiritish, keyingi mashg`ulotni o`tkazishga tayyorgarlik ko`rish.</p> <p>O`quvchi: Tabiat manzarasi fonida natyurmort mavzusi bo'yicha rasm ishlash, amaliy mashg`ulotlar bajarish, savol-javobga tayyorgarlik ko`rish va qo`shimcha manbalarni izlab topish.</p>

Dars uslubi: Ko`rgazmali-amaliy;

Dars usuli: Noan`anaviy, "Aqliy hujum".

Dars tipi: Yangi bilimlar beruvchi;

Dars didaktikasi:

a) **jihazi:** Darslik, yozuv taxtasi, tarqatma materiallar, tezkor savollar yozilgan kartochkalar, rasm vositalar.

b) **texnik vositalari:** kompyuter («Zumrat va Qimmat ertagi» rasmlari), videoprojektor, kadoskop, ekran.

Darsning blok-sxemasi:

T/r	Darsning bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism	2 daqiqa
2.	Guruhlarga topshiriq berish orqali o`tilgan mavzuni so`rash	8 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	11 daqiqa
4	Amaliy mashqlar bajarish orqali mavzuni mustahkamlash	20 daqiqa
5	Dars yakuni: G`olib guruhni aniqlash va o`quvchilarni baholash 2. Uyga vazifa	4 daqiqa

Darsning shiori:

“To`xtama, o`qi, o`rgan Koinot ilmin,
Zero, tinmay aylanar Kurrai-zamin”

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism:

a) **Psixologik iqlim yaratish** (salomlashish, sinfning va o`quvchilarning darsga tayyorligini baholash, navbatchini aniqlash, davomat, sanani aniqlash)

b) **Darsning mavzusini va maqsadini e`lon qilish**

d) **O`rganiladigan BKM larni e`lon qilish:**

e) **“Oltin qoidalar” ni ishlab chiqish:**

1. O`zaro hurmat 2. O`zgalar fikrini hurmat qilish

3. Erkin fikrlash 4. Intizomlilik 5. Topqirlik 6. Hozirjavoblik

O`tilgan mavzu yuzasidan o`quvchilarni baholash.

Yangi mavzu bayoni: Tabiat manzarasi fonida natyurmort ishlash

Natyurmort ishlash jarayonida chizuvchilar narsalarni shakli, tuzilishi, rangi va shu kabi xususiyatlarini bir-biridan farqi va o'xshash tomonlarini solishtirish

orqali aniqlashni o'rganadilar. Shuningdek, narsaning qaysi geometrik shakliga xos ekanligini aniqlagan holda ularni perspektiv jihatdan tasvirlash yuzasidan bilim va malakalar hosil qiladilar. Bu mashg'ulotlarning kishilar uchun eng zarur xususiyatlaridan biri xotirani mustahkamlaydi. Narsaga qarab rasm chizishda fazoviy tasavvur va tafakkur o'stiriladi. Narsaning o'ziga qarab rasmini chizish malakalarini hosil qilish ikki bosqichda oshiriladi. Bular:

1. Shakli va tuzilishi murakkab bo'lmagan yakka narsalarni o'ziga rasmini chizish. Bunday narsalarni o'ziga qarab rasmini chizishda ularning hajmini va perspektiv qisqarishini maqsad qilib qo'yilmaydi.

2. Shakli va tuzilishi murakkabroq bo'lgan narsalarning to'plamini o'ziga qarab rasmini chizish. Bunda narsalarni hajmini perspektiv qisqarishda tasvirlash shart qilib qo'yiladi. Natyurmort tuzish uchun xalq amaliy san'ati buyumlari, idishlar, meva va sabzavotlar va x.k. ham tavsiya etiladi.

Chizish uchun natura predmetlar tanlashda predmetlarni tashqi ko'rinishi haddan tashqari bezakdor bo'lmasligi kerak. Ortiqcha bezak naturadagi yorug' soyalarni idrok etishni qiyinlashtiradi. Orqa fon uchun tanlangan matolar gulsiz, silliq yuzali bo'lgani maqsadga muvofiqdir.

Dars yakunida o`quvchilarga uyga vazifa beriladi:

Naturmort chizib kelish.

3.3§ Rangtasvirda natyurmort ishlash uchun axborot kompyuter texnologiyalaridan foydalanish.

Ilm- fan, texnika taraqqiyoti va jamiyatimiz hayotida yuz bergan tub yangilanishlar, shuningdek, o'quv axborotlarining mutassil ravishda ortib borayotganligi ta'lim jarayoniga yangicha munosabatda bo'lishni taqozo etmoqda.

“Ta'lim to'g'risida” gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablariga binoan ta'limning yangi modelining yaratilishi o'qitishining zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarga asosan tashkil etish shu kunning dolzarb masalasiga aylandi. Bugungi kunga kelib ta'lim tizimi katta rivojlanish yo'lini bosib o'tmoqda. Ta'lim tizimida kompyuter texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. Kompyuter texnologiyalari ta'lim, fan va ishlab chiqarishning barcha sohalarini qamr ab oladi.

Komyuter grafikasidan ta'lim tizimining barcha jabhalarida keng foydalanilmoqda. Fanlardan elektron darslik, ko'rgazmali qurollar ishlab chiqish yo'lga qo'yilib o'qituvchilar foydalanmoqdalar. Lekin qishloq joylarda ahvol qanday? o'qituvchilar kompyuterda nima ishlar bajarmoqda, dars mashg'ulotlarida kompyuterdan foydalanmoqdalarimi? Bunga sharoitlar yetrlimi? Degan savol tug'iladi albatta...

Tasviriy san'at mashg'ulotlarida rasm chizish, kompozitsiya yaratish, chizgan rasmlar dezaynini o'zgartirish, naqshlarni bosqichlar asosida chizishda kompyuterdan keng foydalanish mumkin. Ayniqsa dekorativ amaliy san'atga oid mashg'ulotlarni o'tkazishda islimiy va girix naqshlarini chizishda kompyuter grafikasidan foydalanish ishning natijadorligini oshiradi. Amaliy bezak san'atining turli bezak sohalarida va memorchilik san'atida kompyuter grafikasi dasturlaridan keng foydalanish mumkin.

Hozirgi kunda maktab chizmachilik dasturiga kompyuter grafikasidan foydalanish kiritilgan bo'lib, o'quvchilar kompyuterda to'g'ri chiziq chizish, tekis shakllarni chizish, grafik ko'rinishdagi shakllarni chizish, detall ko'rinishlarni chizish, detalning fazoviy holatini hamda uning shaklini qisman o'zgartirishni o'rganmoqdalar. Bu o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi va o'quvchilarning yangiliklar yaratishga bo'lgan iqtidorini shakllantiradi. Tasviriy san'at mashg'ulotlarini 7 - sinfda tashkil etishda kompyuter grafikasidan foydalanib rasm chizish mashg'ulotlari dasturiga kiritilsa yaxshi natija berar edi. Chunki maktab dasturida 8 – 9 sinfda tasviriy san'at o'tilmaydi. 8 – 9 sinflarda chizmachilik darslari olib boriladi. Chizmachilik fanidan 9 - sinfda o'quvchilar kompyuter grafikasidan qisman foydalanish imkoniga ega bo'ladilar. Agar 6 – 7 sinfda o'quvchilar kompyuter grafikasida rasm chizishni o'rgansalar natijada chizmachilik darsidagi chizmalarni bajarishga qiynalmaydilar va kollejga borganida bemalol kompyuter grafikasidan foydalana oladilar.

7-sinfning ikkinchi choragidagi mavzulardan boshlab kompyuter grafikasi dasturga kiritilsa va o'quvchilar mashg'ulotlarda naqshlarni bezaklarni chizishni o'rganmalar, bino maketlarini qursalar, kerakli dezayin yechimlaridan foydalanib kompozitsiyalar yaratsalar mashg'ulotlar samaradorliroq bo'ladi. Tasviriy san'at va chizmachilik darslarida kompyuter grafikasidan foydalanish dars samaradorligini oshirish bilan bir qatorda o'quvchining bilish, o'rganish, yaratish, loyihalash, ko'nikma va malakalarini yanada rivojlantiradi.

O'quvchilar dars davomida nafaqat rasm, chizma chizish, loyiha yaratishni o'rganadilar, ular internetdan foydalanish orqali milliy san'atimiz namunalarini, betakror san'at asarlarini, tarixiy obidalarni ko'zlari bilan ko'rib yangidan – yangi asarlar yaratishga kirishadilar. Respublikamizda fan texnika taraqqiyotining rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shishlariga imkon yaratiladi.

Shu o'rinda shuni ta'kidlab o'tmoqchimizki, dars davomida foydalanish uchun o'qituvchilarga kompyuter savodxonligi bo'yicha qo'llanmalar tayyorlanib berilishi shart va zarur. Bugungi kun yoshlari ta'limining barcha yo'nalishlariga qiziqib bormoqdalar. O'quvchilarning qiziqishlari asosida 6-7-sinflar uchun tasviriy san'at yo'nalishidagi kollejlarda dasturi bilan bog'liq bo'lgan "Kompyuterda rasm chizish" ni o'rganamiz mavzusida qo'shimcha qo'llanmalar yaratilsa yaxshi bo'lar edi.

Quyida chizmachilik darsini tashkil etish bo'yicha dars ishlanmasi va tasviriy san'at darslarida naqsh namunalarini bajarish bosqichi ilova qilindi:

Mavzu: Kompyutr yordamida tekis va hajmli shakllar tasvirini yasash

Darsning maqsadi:

a. Ta'limiy: O'quvchilarda kompyuterning grafik imkoniyatlaridan foydalangan holda grafik tasvirlar yasash ko'nikmasini hosil qilish.

b). Tarbiyaviy: O'quvchilarning kompyutr grafikasidan foydalanishda geginek va estetik tarbiya berish

v). Rivojlantiruvchi: O'quvchilarning chizmalarni kompyuter yordamida tasvirlash malakasini oshirish.

Dars usuli: Aqliy hujum

Dars uslubi: Amaliy mashq bajarish

Dars turi: Yangi bilim va tushunchalar hosil qilish.

Dars tipi: Aralash metod.

Darsning jihozlari: Sinf doskasi, bo‘r, chizmachilikda ishlatiladigan asbob-uskunalarlar. Dars mavzusi yoritilgan chizma-plakat va darslik. Dars mavzusiga taalluqli chizma tasvirlangan plakat. Kompyutr qurilmasi

Darsning borishi:

O‘quvchilar bilan salomlashish va yo‘qlama qilish. Uyga berilgan topshiriqlarni tanlab, nazorat qilish va tahlili. O‘quvchilar yo‘l qo‘ygan kamchilik va xatolarni umumlashtirib, tahlil qilinib, tushuntirib beriladi. 3-4 o‘quvchilarning uy ishlari baholanib, e‘lon qilinadi va rag‘batlantiriladi.

O‘quvchilarning kompyuter texnikasi bilan 5-sinfdan beri tanish ekanliklarini hisobga olgan holda, ularning kompyuterning grafik imkoniyat haqida qanday tushunchaga ega ekanliklarini aniqlash maqsadida quyidagi savollar beriladi:

1. Qanday grafik muharrirlarni bilasiz?

Javob: Paint, Photo Shop, Corel Draw va h.k.

2. Siz 5-sinfda “Paint” grafik muharriri bilan tanishgansiz. Aytingchi, “Raint” grafik muharririning “Uskunalar paneli”da qanday asbob-uskunalar mavjud? Ularni sanab bering.

Javob: To‘g‘ri chiziq chizish, egri chiziq chizish, chiziqlar qalinligini belgilash, o‘chirg‘ich, shaklning kerakli qismini belgilash va h.k.

3. “Paint” grafik muharririda rang qanday tanlanadi?

Javob: Sichqonchani ish oynasining pastki qismida joylashgan ranglar palitrasidan kerakli rangni tanlab olamiz, ya‘ni sichqonchani shu rangga olib kelib siqchoncha tugmasini bosamiz.

4. Tanlangan rangni kerakli joyga qanday qilib joylashtiramiz?

Javob: Tanlangan rangni kontur bilan chegaralangan shakl ichiga olib kelib sichqoncha tugmasini bosamiz va ganrni joylashtiramiz.

Dars yakunida o‘quvchilarga uyga vazifa beriladi:

Naturmort chizib kelish.

3.4§. Tasviriy san’atda Adobe Photoshop va Corel Draw grafik muharriridan foydalanish

Adobe Photoshop grafik muharriri

Adobe Photoshop dasturi Adobe Systems firmasi tomonidan yaratilgan ko’p funkstiyali grafik muharrir bo’lib, uning yordamida asosan rastrli tasvirlar hosil qilinadi va qayta ishlanadi.


Adobe Photoshop dasturining birinchi varianti (versiyasi) 1987 yili Michiganuniversiteti talabasi Tomas Noll tomonidan yaratilgan. U bu dasturni “Display” deb nomlagan. 1988 yili uni “ImagePro” deb qayta nomladi. 1988 yilning sentyabr oyi sanasida [Adobe Systems](#) firmasi bu dasturni mualliflik maqomini Tomas Nollga qoldirish sharti bilan sotib oladi va 1989 yili unga “Photoshop” nomini beradi. 1990 yili Photoshop 1.0 versiyasi ishlab chiqildi. 2003 yil oktyabr oyida bu dastur Adobe Systems firmasining “Creative Suite” amaliy dasturlar paketi tarkibiga kiritilib, Photoshop CS nomi bilan nomlana boshladi. Shundan beri Photoshop CS3, Photoshop CS4, Photoshop CS5 versiyalari va 2012 yilning may oyida Photoshop CS6 versiyasi ishlab chiqildi.

Adobe Systems kompaniyasi ruhsati bilan AQShning Kaliforniya shtati “Mountain –View” shahridagi kompyuter tarixi muzeyi o’zining saytiga Photoshop grafik muharririning birinchi (1.0.1) versiyasini kodini joylashtirgan. U arxiv ko’rinishida bo’lib, u 179 ta fayldan yoki 128 ming ta dastur qatoridan tashkil etgan. Uning 2/3 qismi Paskal dasturlash tilida yozilgan.

Adobe PhotoShop dasturi rastrli tasvirlarni qayta ishlashga mo’ljallangan grafik muharrir dasturlar ichida “de-fakto” standarti maqomiga ega bo’lgan dastur hisoblanadi. Bu dasturning boshqa dasturlardan asosiy ustunligi unda tasvirlarni qayta ishlash qatlamlar prinsipiga asoslanganligi va qo’shimcha dasturiy modullar (Plug-in) tizimini qo’shish imkoniyati mavjudligidadir. Qatlam Adobe PhotoShop dasturining bazaviy elementi hisoblanadi. Qatlamni shaffof oynaga qiyoslash mumkin. Masalan tasvirni bir necha bo’laklarga bo’lib, har bir bo’lakni alohida oynaga chizib, so’ng bu oynalarni birlashtirilsa tasvir butun holda ko’rinadi.

Adobe PhotoShop dasturida tasvirlar kamida bitta qatlamga joylashadi. Qatlamlar soni yuqoridan chegaralanmaydi. Tasvirlarni qatlam prinsipi asosida yaratilishi ularni tahrirlashda engillik tug'diradi.

Creative Suite
dasturlar paketi tarkibi




Photoshop		•		
Photoshop Extended			•	•
Illustrator		•	•	•
InDesign		•	•	•
Acrobat X Pro for Creative Suite		•	•	•
Flash Professional			•	•
Flash Builder				•
Dreamweaver			•	•
Fireworks			•	•
Premiere Pro				•
After Effects				•
Audition				•
SpeedGrade				•
Adobe Prelude				•
Encore				•
Bridge*		•	•	•
Media Encoder*		•	•	•

Rasm1. “Creative Suite” amaliy dasturlar paketi tarkibi

Qo'shimcha modullar prinsipi grafik muharrir imkoniyatini kengaytiradi. Ular tasvirlarni har xil usullar bilan qayta ishlash imkonini beradi. Hozirda juda ko'p kompaniyalar, firmalar tasvirlar ustida murakkab amallar bajarishga mo'ljallangan modullar yaratish bilan shug'ullanadi. Bu modullarni Adobe PhotoShop dasturiga qo'shish hech kanday qiyinchilik tug'dirmaydi. Ularni dasturning maxsus papkasiga nusxa olib ko'chirilsa etarli bo'ladi.


Bundan tashqari Adobe PhotoShop grafik muharririda asosiy e'tibor kompyuter grafikasining texnologiyalariga qaratiladi, ya'ni undagi tasvirlarni tahrir qilish usullari tasvirni imkon qadar asliga o'xshatishga xizmat qiladi. Adobe PhotoShop dasturidagi mavjud vositalar yordamida osongina tasvirlarni “maskalash” (tasvir qismini berkitish), bo'yash, kesish, tasvirni yoki uning biror qismini parametrlarini o'zgartirish va boshqa shu kabi amallarni bajarish mumkin.

Adobe PhotoShop dasturini ishga tushirish WINDOWS operasion tizimida dasturlarni ishga tushirish standarti kabi amalga oshiriladi. Dastur ishga tushganda ekranda uning oynasi paydo bo'radi.



Rasm2. Foydalanuvchi interfeysi elementlari

Bu oyna odatda foydalanuvchi interfeysi deb ataladi. Foydalanuvchi interfeysi quyidagi elementlardan tashkil topgan:

Dastur oynasining eng yuqori satri sarlovxa satri deyiladi. Bu satr oynaning 1-satri bo'lib, u to'q ko'k rangda. Unda dastur nomi, tasvir fayl nomi, tasvir masshtabi va oynani boshqaruvchi uch tugma joylashgan. Bu satrning chap burchagidagi  tugmani bosish orqali ochiluvchi "kontekstli" menyu buyruqlari orqali oyna ustida amallar bajarish mumkin.

A) Menyular satri. Bu satrda grafik muharrirning barcha buyruqlari bajaradigan vazifalariga yaqin qilib guruhlarga ajratilgan va ochiluvchi menyular

ko'rinishida keltirilgan. Menyudagi ba'zi buyruqlar qatorida «▶» ko'riniidagi belgi mavjud bo'lsa, u bu buyruqga menyu osti bog'langan ekanligini anglatadi.

B) Aktiv instrument parametrlari paneli satri. Bu satr yordamida tasvirlar yaratishda va tahrirlashda ishlatiladigan instrumentlarning parametrlarini ko'rish va kerak bo'lganda o'zgartirish mumkin.

C) Instrumentlar paneli satri. Instrumentlar panelidagi tugmalarning o'ng quyi qismida uchburchak shaklidagi qora belgi mavjud bo'lsa, bu tugmaga bir necha instrumentlar bog'langan bo'ladi. Bu instrumentlar yordamida tasvirlar hosil qilish, ularni ajratib olish, tahrirlash, ko'chirish va hokazo amallar bajariladi.

D) Tasvir oynasi satri. Bu satr biror bir tasvir fayli tashkil etilsa yoki ochilsa paydo bo'ladi. Bu oynaning atrofi, ya'ni yuqori va yon chap tomoni lineyka bilan o'ralgan. O'ng qismida "Okno" menyusi yordamida ochilgan har xil oynalar joylashadi. Quyi qismida holatlar satri joylashgan bo'ladi.

E) Tasvir maydoni – bu tasvir chizish uchun ajratilgan maydon. Uning katta kichikligi tasvir fayli ochiladigan paytda ko'rsatiladi. Masalan: 300x400 kabi.

F) Navigator oynasi – bu tasvir oynasining kichiklashtirilgan holati bo'lib, u katta masshtabli tasvirni kerakli joyini ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

G) Ranglar paneli – bu panel yordamida tasvir chizishda uning foni va chizish-bo'yash uchun rang tanlashda ishlatiladi.

H) "Istoriya" (tarix) oynasi – tasvir ustida bajarilgan barcha amallar bu oynada tasvirlanadi. Asosan tasvir ustida bajarilgan amallarni bekor qilishda ishlatiladi. Buning uchun bu oynada keltirilgan amal nomi o'chirib tashlanadi.

I) "Sloi" (qatlamlar) oynasi – bo' oyna yordamida qatlamlar ustida amallar bajariladi. Masalan, kerak bo'lmagan qatlam o'chiriladi, yangi qatlam tashkil qilinadi, qatlamlarni joylashish ketma ketligi o'zgartiriladi va hokazo.

Bu Photoshop dasturi oynasi elementlari haqida qisqacha ma'lumot. Ular haqida batafsilroq ma'lumotlarni yana amaliy darslarda beriladi.

PhotoShop dasturida har bir tashkil etiladigan fayl hujjat o'zining o'lchamiga ega bo'lishi lozim. Fayl o'lchami tasvirni eni va bo'yi o'lchamlaridan kelib

chiqqan holda aniqlanadi. Masalan, shaxsiy tashrif qog'ozi (vizitnaya kartochka) tasviri yaratiladigan bo'lsa uning standart o'lchami eni 9sm, bo'yi 5sm bo'ladi va shunga ko'ra fayl hujjatning o'lchami eni 9 sm, buyi 5 sm qilib olinadi.

Yangi fayl tashkil etish "Fayl (File) menyusining "Новый" (New) buyrug'i yordamida bajariladi. Bu buyruq berilganda ekranda "Noviy" nomli muloqot oyna ochiladi. Bu oyna quyidagi ko'rinishda bo'lib, u quyidagi elementlardan tashkil topgan:

A. Hujjat nomi (Name-Imya)-bu erda fayl xujjat nomi ko'rsatiladi


B. Avvaldan o'rnatish (Preset-Predustanovki) – oldindan o'rnatilgan hujjat o'lchamlaridan biri tanlash

C. Hujjat o'lchami (Размеры документа)- Bu erda hujjatni eni (Width) va bo'yi (Height) o'lchamlari ko'rsatiladi

D. O'lchov birlik - tanlash yo'li bilan o'rnatiladi.

E. Bir dyumdagagi mumkin bo'lgan nuqtalar soni (Resolution- Razreshenie) – Bu erda hujjatni bir dyumdagagi mumkin bo'lgan nuqtalar soni o'rnatiladi. Bosmaga chiqariladigan tasvirlar uchun 300 yoki undan yuqori, veb sahifalar uchun yoki kompyuter ekrani uchun 72 qo'yish etarli bo'ladi.

F. Rang rejimi (Color Mode-Цветовой режим) – bu erda rang formati ko'rsatiladi. Odatda rang modeli formatini RGB modeli o'rnatiladi.



G. Fon (Background Contents-Soderjanie fona) – Tasvirning foni o’rnatiladi.

Yuqoridagi muloqot oynada keltirilgan kabi olinsa, oq fonli o’lchami 800x600 piksel bo’lgan hujjat hosil qiladi.

Photoshop dasturida fayllarni diskga saqlash uchun “Fayl” (File) menyusining “Soxranit” (Save) buyrug’i beriladi. Diskga saqlashda har xil grafik formatlarda saqlash mumkin. Shu bilan birga tasvir sifatini ham boshqarish mumkin.

Faylni yopish “Fayl” (File) menyusining “Zakryt” (Close) buyrug’i yordamida amalga oshiriladi.

CorelDraw grafik muxarriri

Zamonaviy vektorli grafika – bu juda ko’p imkoniyatli kuchli instrumentlar to’plamidan iborat grafika bo’lib, uning yordamida ixtiyoriy ko’rgazmali tasvirlar yaratish imkoniyati mavjuddir. Hozirda vektorli grafika bilan rastri grafika orasidagi chegara yo’qolib bormoqda. Kecha faqat rastri grafika elementlari bilan yaratiladigan tasvirlarni bugun vektorli grafika instrumentlari bilan yaratish mumkin bo’ldi.

Vektorli grafikada ish olib boradigan ko’plab dasturiy ta’minotlar mavjud bo’lib, ular ichida Adobe Illustrator 9, Expression 2, Deneba Canvas 8 va CorelDraw kabi dasturlar hozirgi kundagi eng mashxur dasturlar hisoblanadi.

Vektorli grafika – bu vektorli tasvirlar yaratish, qayta ishlash va ularni saqlash usullarini o'rganuvchi kompyuter grafikasining bir bo'limi hisoblanadi. Tugun nuqtalar deb ataluvchi ikki nuqta bilan chegaralangan chiziq elementar chiziq deb ataladi va bu elementar chiziq vektorli grafikaning asosiy elementi bo'lib xizmat qiladi. Vektorli grafikada har qanday elementar chiziq tugun nuqtalar va segmentlardan tashkil topadi.

Vektorli grafikada har bir ob'ekt elementar chiziqlar yordamida hosil qilinadi. Masalan to'g'ri to'rtburchak 4ta elementar chiziqni birlashtirish asosida hosil qilinadi.

Vektorli tasvirlar deb – tuzilishi jihatidan murakkabroq bo'lgan va har xil ko'rinishga ega bo'lgan geometrik ob'ektlar to'plamiga aytiladi. Bunday ob'ektlarga misol tariqasida to'g'ri to'rtburchaklarni, aylanalarni, ellipslarni, ko'p burchaklarni, kesmalarni va chiziqlarni keltirish mumkin. Vektorli grafikaning xarakterli xususiyatlaridan biri undagi har bir ob'ekt uchun ularni tashqi ko'rinishlarini o'zgartirish imkonini beradigan boshqarish parametrlari mavjud. Vektorli tasvirlarni xotiradan joy egalashi, ya'ni o'lchami nuqtali tasvirlar o'lchamiga qaraganda ancha kichik bo'ladi. Bundan tashqari vektorli tasvirlarni nuqtali tasvirlarga aylantirish foydalanuvchi ishtirokisiz, amaliy dastur tomonidan amalga oshiriladi. Lekin nuqtali tasvirlarni vektorli tasvirga aylantirish foydalanuvchidan katta mahorat talab qiladi.

Corel firmasi tomonidan 1999 yilning may oyida ishlab chiqilgan CorelDraw amaliy dasturlar paketi hozirgi kunda ilyustrativ (ko'rgazmali) grafika yaratish bo'yicha eng oldingi dasturiy mahsuloti hisoblanadi. U o'zining qisqa tarixi mobaynida vektorli grafikaning boshlang'ich darajasidan to professional darajasigacha etib keldi. Hozirda u bosmaxona (poligrafiya) grafikasi, Web grafika va reklama sohalarida keng qo'lamda ishlatilmoqda.

CorelDraw amaliy dasturlar paketining barcha oxirgi versiyalari CorelGraphicsSuiteXN nomi bilan yuritilib, uning tarkibiga bir qancha amaliy dasturlar kiradi. Masalan CorelDraw Graphics SuiteX6 paketiga quyidagilar kiradi.

1. CorelDRAW X6 – vektorli tasvirlar yaratish dasturi
2. PHOTO-PAINT X6 – rastrli grafiklarni qayta ishlash dasturi;
3. Corel PowerTRACE X6 – rastrli tasvirlarni vektorli tasvirlarga o'tkazish dasturi;
4. Corel CAPTURE X6 – ekrandagi tasvirlarni qabul qilish dasturi;
5. Corel R.A.V.E. – animastion tasvirlar yaratish dasturi.
6. Corel CONNECT X6 – tasvirlarni Internetdan yoki local diskdan qidirish dasturi;
7. PhotoZoom Pro 2** - tasvirlarni kattalashtirib berish moduli.
8. ConceptShare™ (ENGLISH) – Internetda jamao shaklida ishlash dasturi.

CorelDraw amaliy dasturi – integrastiyalashgan va ob'ektga mo'ljallangan dasturiy paket hisoblanib, ilyustrativ grafika bilan ishlash imkonini beradi.

Ilyustrativ grafika – bu mashina grafikasining bir tarmog'i bo'lib, yaqin davrdan beri alohida avtonom yunalish sifatida rivojlanmoqda. Ilyustrativ grafika o'z ichiga rasmlarni, reklama e'lonlarini, posterlarni, zastavkalarni, chizmalarni va boshqa baddiy rassomlik mahsulotlarini oladi. Ilyustrativ grafika ob'ektlari boshqa grafik ob'ektlaridan o'zining birlamchiligi bilan farqlanadi. Ya'ni ilyustrativ grafika ob'ektlari boshqa grafik ob'ektlar kabi oldindan berilgan qiymatlarga ko'ra rassom yoki dizayner ishtirokisiz avtomatik ravishda tuzila olmaydi.

Integrastiyalashganlik - tushunchasi shuni anglatadiki, CorelDraw tarkibiga ilyustrativ grafikaga tegishli turli masalalarni echishga mo'ljallangan bir qancha dasturlar kiradi va ular o'zaro osongina ma'lumot almashish, bir yoki bir necha berilganlar ustida amallar bajarish hossalari ega. Boshqacha qilib aytganda CorelDraw ko'p funkstionallik hossasiga ega bo'lgan dasturlar paketi bo'lib, undagi dasturlar bir butun bo'lib integrastiyalashish xususiyatiga egadir.

Ob'ektga mo'ljallanganlik tushunchasini shunday tushinish kerakki, foydalanuvchi tasvirga o'zgartirish kiritish jaroyonida butun bir tasvir bilan emas, balki uning ba'zi qismlari (ob'ektlari) bilangina ish yuritadi. Ya'ni CorelDraw dasturlar paketi yordamida tashkil etilgan har qanday tasvir bir yoki bir necha standart (to'rtburchaklar, aylanalar, ellipslar, matnlar va boshqalar) va nostandart ob'ektlardan iborat bo'lib, ular ierarxik strukturaga ega bo'ladi. Ierarxiyaning eng yuqorisida butun bir ilyustratsiya (tasvir) tursa, quyisida standart obektlar joylashgan bo'ladi.

Ushbu dasturlar paketning ob'ektga mo'ljallanganlik hossasini yana bir ajoyib tomoni shundan iboratki, bunda tasvirni tashkil etuvchi har bir ob'ektga mos ravishda boshqarish parametrlari va standart amallar to'plami aniqlangan. Masalan to'rtburchak uchun boshqaruvchi parametrlar sifatida uning balandligi, kengligi, rangi, chiziq qalinligi va boshqa parametrlari olingan. Standart amallar sifatida esa turtburchakni biror bir burchakga burish, masshtab tanlash va boshqa amallar mos qo'yilgan.


Hulosa qilib aytganda, CorelDraw amaliy dasturlar paketining ob'ektga mo'ljallanganligi foydalanuvchiga tasvirlar yaratishda cheksiz imkoniyatlarni yaratadi.

Ishdan maqsad: Adobe Photoshop instrumentlar panelidagi «Kist» instrumenti va Rang palitrasidan foydalanishni o'rganib, ularni qo'llash usullarini ko'rib chiqish va effektlar berishni o'rganish.

Maqsadning qo'yilishi: Adobe Photoshop dasturi yordamida shaxsiy kompozitsiya yaratish.

BAJARILADIGAN AMALLAR



NATIJA

1. Eni 500 piksel, balandligi 400 piksel bo'lgan yangi fayl yarating. Yangi qatlam hosil qiling (Layer > New > Layer... yoki Ctrl-Shift-N) va uni 'Back green' deb nomlang. Qatlamni  uskunasi yordamida to'q yashil rangga bo'yang, masalan rang kodi #2A690B bo'lsin. So'ngra 500 diametrli yumshoq kistni oling, rangni och yashil #4F9F27ga o'zgartiring. Yuqori chap burchakka kistni bir marta bosib, natija xuddi quyosh nuri qalin o'rmonni yoritayotgandek ko'rinishga ega bo'lishi lozim. Aktiv rang sifatida #D4F14Dni o'rnatib, kist o'lchamini 400 px gacha kamaytiring, yana o'sha yuqori chap burchakka bir marta bosib. Kist rangini #163D03 to'q yashilga o'zgartiring, diametr o'lchamini 500px qilib belgilang va pastki o'ng burchakka bir marta bosib. Natijada quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.




2. Rasm foni tayyor. Yangi qatlam yarating, uni 'Leaves' deb nomlang, bu qatlam bizga daraxt barglarini chizish uchun zarur. Kist shakllari orasidan bargni tanlang, kist o'lchami 55, aktiv va passiv ranglarning ikkalasi ham #385F16 qilib o'rnatib, rasmning yuqori qismiga istaganingizcha barglarni chizing.



Endi Burn  uskunasini oling, kistning rang va o'lchamlarini o'zgartirmagan holda rasmning yuqori o'ng qismlaridagi barglarni nisbatan to'qroq qilib bo'yang. Keyin Dodge  uskunasini oling yuqori chap burchakdagi barglar rangini nisbatan ochroq qilib bo'yang. Chunki keyinchalik quyosh nurlari aynan shu

yerdan taralib turadi.

3.'Back green' va barglar qatlami orasida yangi qatlam hosil qiling, uni 'Small leaves' deb nomlang. 35px o'lchamdagi to'q yashil rangli kist yordamida orqa fonga mayda barglar chizing. Didingizga mos holda Burn  uskunasi yordamida Exposure = 20% bilan barglarning ayrim qismlarini to'qroq rangga bo'yash mumkin, yoki Opacity darajasini 65-50% gacha kamaytirish ham mumkin.




4.Maysalarni chizishni boshlaymiz. 'Back green' va 'Small leaves' qatlamlari orasida yangi qatlam hosil qiling va uni 'Grass'deb nomlang. Maysa-o't shaklidagi kistni tanlang. O'lchamni 70, ranglarni #A4D479 va #385F16 qilib o'rnatish. Bu kist yordamida bir necha qator o'tlarni chizing. Tasvirning eng pastki qismini bo'sh qoldiring. O'tlarga tabiiy ko'rinish berish uchun Brush hususiyatlarini o'zgartirsangiz ham bo'ladi.




5.Endi shu qatlamning o'zida 112 o'lchamli, #629633 va #1B3405 ranglardagi kist bilan tasvirning quyi qismiga o'tlar chizing, bu eng birinchi qatordagi maysalar bo'ladi.




6. 'SmallLeaves' va 'Grass' qatlamlari orasida yangi qatlam hosil qiling, uni 'Light'deb nomlang. Gradient . Uskunasini oling va yarim shaffof gradientni (boshidan ikkinchi) tanlang, ikkala rangni ham #FFFED5 ga o'zgartiring. Asosiy ishchi sohaga qayting chapdan uchinchi gradient (conus)ni tanlang va yana rang maydoniga bosing:




7. Parametrlarni huddi rasmda ko'rsatilganidek o'zgartiring, bu o'rinda juda ehtiyotkor bo'ling, har bir mayda detalni ko'zdan qochirmang.



8. Hammasi tayyor bo'lgach hosil qilingan gradientdan rasmda ko'rsatilganidek foydalaning. Yuqori chap burchakdan boshlab tasvir umumiy uznliginig yarmidan pastrofigacha bo'lgan vertikal chiziq torting.



9. Natija quyidagicha ko'rinishga ega bo'lishi zarur.



10. Bu juda ham yorqin bo'lganligi sababli qatlam shaffofligini Opacity 20% gacha kamaytiring.



11. Ozgina tabiiy nur qo'shamiz. 'Grass' va 'BackGreen' qatlamini belgilab, ularni bir qatlamga birlashtiring (Ctrl+E). So'ngra Filter>Render>LensFlare...ni tanlang va parametrlarni rasmdagidek qilib o'rninging:



12. Mana oxirgi natija:





Tasviriy san'atda CorelDraw grafik muxarriridan foydalanish va ob'ektlarga effektlar berish.

Ishdan maqsad: amaliy topshiriqlarni CorelDraw dasturida bajarish.

Masalaning qo'yilishi:


Instrumentlar panelidan turli xildagi shakllardan foydalanib kompozisiya yarating.






Ishni bajarish uchun namuna:

Polygon tool (Y) uskunasi yordamida muntazam beshburchak chizing, Teng tomonli ko'pburchak chizish uchun ctrl tugmasini bosib turing.




Yaratilgan shakldan Ctrl+D yordamida nusxa oling, Figura **Shape tool (F10)** uskunasi yordamida tomonlarning o'rtasida joylashgan ixtiyoriy nuqtani ichki tomonga torting va ob'ektni kattalashtiring. So'ngra ikkala ob'ektni belgilang va ularni markazga tekislang Uporyadochit-Vыровnyat i raspredelit-vыровnyat po stentru gorizontali i verticali. **Arrange > Align and Distribute**. Ob'ekt konturlari ranglarini har xil qilib o'rning.



Peretekanie Interactive blend tool



uskunasini tanlang va bir ob'ekt markazidan sichqonchani bosgan holda ikkinchi ob'ekt markazigacha torting.




Hususiyatlar panelidan tutashtiruvchi ob'ektlar sonini o'zgartiring



Kichik ob'ektni belgilang va uni boshqa bir o'ringa surib o'tkazing, bu holda uzun shleyfga o'hshash shakl hosil bo'lishi lozim. Uni hususiyatlar paneli **Blend direction** da joylashgan **Loop blend**

 buyrufi yordamida ixtiyoriy burchakka aylantirish mumkin:




Shakllar va hususiyatlarni bir necha xil xolatlarga o'zgartirish yordamida ajoyib natijalarga erishish mumkin.

Mustaqil ravishda quyidagi variantlardan birini tayyorlang:



Osnovnye figury bo'limida foydalanib kompozitsiya yarating. Figuralar tanlang, rang bering, ular ko'paytirib kerakli joylarga joylashtiring.



IV.Xulosa

Maktablarda tasviriy san'at o'quv predmetining maqsadi barkamol, komil insonni ayniqsa, badiiy madaniyatini shakllantirishdir.

Tasviriy san'atda, borliqni aks ettirish o'z-o'zidan paydo bo'lmadi. U inson paydo bo'lishi bilan shakllanib taraqqiy eta boshladi. O'rta asrga kelib o'zining eng yuqori cho'qqisini namoyon qildi. Evropa bu borada dnyo svilizatsiyasiga o'ziga xos o'ringa ega. Zamonasining eng buyuk tasviriy san'at arboblarni yetishtirib berdi va shularning mehnati natijasida shakllandi.

Tasviriy san'at o'quv predmeti har bir inson uchun zarur bo'lgan badiiy madaniyatga doir elementar bilim va malakalar beradi. Chunki, har bir o'quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar u ishdan tashqari vaqtlarida dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi kerak bo'ladi. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan san'at asarlari bilan muzey, ko'rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi. Shuningdek, ko'pchilik o'quvchilar o'zlarining kelajak hayotlarida ma'lum miqdorda rasm ishlashlariga to'g'ri keladi. Rasm chizishni bilish, faqat rassomlar, dizaynerlar, me'morlar uchungina emas, u o'qituvchilar, injenerlar, mediklar, quruvchilar, agronomlar, harbiylar, olimlar uchun ham zarurdir.

Kelajak avlodlarimiz bo'lgan bolalar ongini, tafakkurini boyitish, tasviriy san'at shaydolarini shakllantirishdek, buyuk maqsad sari intiladigan, zamonamiz tayanchlarini, yetuk shaxslarni yetishtirib berishdek mas'uliyatli vazifaga o'z hissamni qo'shganimdan mamnunman. O'z bilim va zakovatlarini, namoyon qila olishlariga iymonimiz komildir.

V.Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

- 1.Karimov I.A. «Yuksak ma`naviyat-engilmas kuch» Toshkent.: «Ma`naviyat» 2008 yil., «Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi» asarlar to`plami Toshkent.:O`zbekiston 1997 yil.
- 2.«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» Toshkent.: Sharq 1997 yil.
3. «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish chora- tadbirlari to'g'risida» O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 iyundagi 200- sonli qarori.
- 4.Tasviriy san`at. Umumiy o`rta ta`limning davlat ta`lim standarti va o`quv dasturi.- Toshkent: Sharq, 1999.
- 5.Adobe Photoshop CS6. Официальный учебный курс; пер. с англ. М. А. Райтмана. - М.: Эксмо, 2013.
- 6.Куприянов Н.И. Рисуем на компьютере: Word, Photoshop, CorelDRAW, Flash .- СПб.: Питер, 2006
7. D.Mironov «Corel Draw 10». Uchebnyy kurs. Sankt-Peterburg. 2002..
8. Azimova B. Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi.–Toshkent: O`qituvchi, 1984.
9. Rahim Hasanov. Tasviriy san`at asoslari Toshkent.: 2009 yil
10. Hasanov R. «Tasviriy san`at o`qitishning zamonaviy texnologiyasi» Fan dasturi. TDPU – 2007.

Internet saytlar:

<http://www.ziyonet.uz>

<http://www.pedagog.uz>

[http://www. artrege studio pro](http://www.artrege studio pro)

<http://books.net-soft.ru/photoshop.htm> - учебник AdobePhotoshopCS

<http://www.yroku-corel.ru/> - Видео-уроки CorelDRAW